



Comparative Turkish Dialects and Literatures

*Official Journal of Atatürk University, Faculty of Letters,
Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures*

Sayı / Issue 5 . Mayıs / May 2024

EISSN 2822-4795

<https://dergipark.org.tr/tr/pub/ctdal>

Comparative Turkish Dialects and Literatures

CHIEF EDITOR / BAŞ EDITÖR

Hüseyin BAYDEMİR 

Atatürk University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Erzurum, Türkiye

EDITOR / EDITÖR


Reyhan KARKINLI 

Atatürk University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Erzurum, Türkiye


INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD / ULUSLARARASI YAYIN KURULU

Anarkul SALKINBAY 


Al-Farabi Kazakh National University, Department of Kazakh Linguistics, Almaty, Kazakhstan
Farabi Üniversitesi, Kazak Dil Bilimi Bölümü, Almatı, Kazakistan

Bahadır GÜCÜYETER 

Atatürk University, Department of Social Sciences and Turkish Education, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi, Sosyal Bilimler ve Türkçe Eğitimi Bölümü, Erzurum, Türkiye

Dilnoza JAMOLIDDINOVA 


Kokand State Pedagogical Institute, Department of Primary Education, Kokand, Uzbekistan
Hokand Devlet Pedagoji Enstitüsü, Özbek Dili Bölümü, Hokand, Özbekistan

Erdoğan UYGUR 


Ankara University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Ankara, Türkiye
Ankara Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara, Türkiye

Erkin EMET 


Ankara University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Ankara, Türkiye
Ankara Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara, Türkiye

Figen GÜNER DİLEK 

Ankara Hacı Bayram Veli University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Ankara, Türkiye
Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara, Türkiye

Fanuz NURIEVA 

Kazan Federal Üniversitesi, Tatar Dil Bilimi Bölümü, Kazan, Tataristan Cumhuriyeti
Kazan Federal University, Department of Tatar Linguistics, Kazan, Republic of Tatarstan

Gülhan ATNUR 


Atatürk University, Department of Turkish Language and Literature, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, Erzurum, Türkiye

Gülnat ABIKENOVA 

Alikhan Bokeikhan University, Kazakh Philology Department, Semey, Kazakhstan
Alihan Bokeyhan Üniversitesi, Kazak Filoloji Bölümü, Semey, Kazakistan

Kurmanbek ABAKIROV 


Yusuf Balasagun National University, Department of Kyrgyz Literature, Bishkek, Kyrgyzstan
Yusuf Balasagun Milli Üniversitesi, Kırgız Edebiyatı Bölümü, Bişkek, Kırgızistan

Laylı ÜKÜBAYEVA 

Kyrgyz-Turkish Manas University, Department of Turkology, Bishkek, Kyrgyzstan
Kırgız - Türk Manas Üniversitesi, Türkoloji Bölümü, Bişkek, Kırgızistan

Naciye ATA YILDIZ 

Ankara Hacı Bayram Veli University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Ankara, Türkiye
Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara, Türkiye

Nilufar YULDOSHEVA 

Karshi State University Department of Uzbek Language, Karshi, Uzbekistan
Karshi Devlet Üniversitesi, Özbek Dili Bölümü, Karşi, Özbekistan

Sedat ADIGÜZEL 


Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Atatürk University, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Erzurum, Türkiye

Selahittin TOLKIN 

Anadolu Üniversitesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, Eskişehir, Türkiye
Anadolu Üniversitesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, Eskişehir, Türkiye

Süleyman EFENDİOĞLU 


Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Atatürk University, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Erzurum, Türkiye

Veli Savaş YELOK 

Ankara Hacı Bayram Veli University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Ankara, Türkiye
Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara, Türkiye

Berdi SARIYEV 

Ankara University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Ankara, Türkiye
Ankara Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara, Türkiye

İlhama QƏSƏBOVA 

Azerbaijan National Academy of Sciences, Ashik Literature Department, Baku, Azerbaijan
Azərbaycan Milli İlimlər Akademisi, Mitoloji Bölümü, Bakü, Azərbaycan

Kuanyshbek MALIKOV 

L.N. Gumilyov Eurasian National University, Department of Philology, Astana, Kazakhstan
L. N. Gumilev Avrasya Milli Üniversitesi, Filoloji Bölümü, Astana, Kazakistan

Recai KIZILTUNÇ 


Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Atatürk University, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Erzurum, Türkiye

Tahir AŞIROV 

Turkmenistan Academy of Sciences, Department of History, Ashgabat, Turkmenistan
Türkmenistan Bilimler Akademisi, Tarih Bölümü, Aşgabat, Türkmenistan

Tuna BEŞEN DELİCE 

Afyon Kocatepe University, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Afyon, Türkiye
Afyon Kocatepe Üniversitesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Afyon, Türkiye

Xayrillo XOMIDOV 

Tashkent State University of Oriental Studies, Department of Translation Science and International Journalism, Tashkent, Uzbekistan
Taşkent Devlet Şarkınaslık Üniversitesi, Çeviri Bilim ve Uluslararası Gazetecilik Bölümü, Taşkent, Özbekistan

FOREIGN LANGUAGE EDITORS / YABANCI DİL EDITÖRLERİ İngilizce Dil Editörü / English Language Editor

Kubilay GEÇİKLİ 

Atatürk University, Department of English Language and Literature, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi, İngiliz Dili ve Edebiyatı Bölümü, Erzurum, Türkiye

Rusça Dil Editörü / Russian Language Editor

Fatma YANIKÖREN 

National Defense University, Department of Foreign Languages, Ankara, Türkiye
Milli Savunma Üniversitesi, Yabancı Diller Bölümü, Ankara, Türkiye

Comparative Turkish Dialects and Literatures

HAKEM LİSTESİ / REVIEWER LIST

Abdullah ELCAN
Abdumurat TİLALOV
Alimcan İNAYET
Ayhan ÇELİKBAY
Dilnoza JAMOLITDINOVA
Erhan GİRAY
Murad HALMET
Nurlana MUSTAFAYEVA
Nursan ILDIRI
Sedat ADIGÜZEL
Selahittin TOLKUN
Yasin KARADENİZ



Comparative Turkish Dialects and Literatures

AIMS AND SCOPE

Comparative Turkish Dialects and Literatures aims to publish studies of the highest scientific caliber in the field of Contemporary Turkish dialects and literatures.

Comparative Turkish Dialects and Literatures publishes research, review and book review articles that will contribute to the literature on Contemporary Turkish dialects and literatures. The main purpose of the journal is to disseminate the scientific knowledge produced in the field of related to scientific language, literature and culture to a wide platform. In doing so, the journal aims to bring together researchers, educational practitioners and policy makers at a common intersection.

The target audience of the journal consists of researchers who are interested in or working in the field of Contemporary Turkish dialects and literatures.

To guarantee that all papers published in the journal are maintained and permanently accessible, articles are stored in Dergipark which serves as a national archival web site and at the same time permits LOCKSS to collect, preserve, and serve the content.

Disclaimer

The statements or opinions expressed in the manuscripts published in the journal reflect the views of the author(s) and not the views of the editors, editorial board, and/or publisher. The editors, editorial board, and publisher are not responsible for the content of the manuscripts and do not necessarily endorse the views expressed in them. It is the responsibility of the authors to ensure that their work is accurate and well-researched, and the views expressed in their manuscripts are their own. The editors, editorial board, and publisher simply provide a platform for the authors to share their work with the scientific community.

Open Access Statement

Comparative Turkish Dialects and Literatures is an open access publication.

Starting on May 2024, all content published in the journal is licensed under the Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License (CC BY-NC-ND) which allows third parties to use the content for non-commercial purposes as long as they give credit to the original work. This license allows for the content to be shared and adapted for non-commercial purposes, promoting the dissemination and use of the research published in the journal.

The content published before May 2024 was licensed under a traditional copyright, but the archive is still available for free access.

All published content is available online, free of charge at <https://dergipark.org.tr/en/pub/ctdal>

AMAÇ VE KAPSAM

Comparative Turkish Dialects and Literatures, Çağdaş Türk lehçeleri ve edebiyatları alanında en yüksek bilimsel kaliteye sahip çalışmalarını yayınlamayı amaçlamaktadır. *Comparative Turkish Dialects and Literatures*, Çağdaş Türk lehçeleri ve edebiyatları ilgili literatüre katkı sunacak, özellikle araştırma, derleme makalelerini ve kitap incelemelerini yayınlamaktadır. Derginin temel amacı, bilimsel dil, edebiyat ve kültür ile ilgili alanında üretilen bilimsel bilgiyi geniş bir platforma yaymaktır. Dergi bunu yaparken araştırmacıları, eğitim uygulayıcılarını ve politika yapımcılarını ortak bir kesişim noktasında buluşturmayı hedeflemektedir.

Derginin hedef kitle, Çağdaş Türk lehçeleri ve edebiyatları alanına ilgi duyan ya da bu alanda çalışan araştırmacılarından oluşmaktadır.

Dergide yayınlanan tüm yazıların korunmasını ve kalıcı olarak erişilebilir olmasını sağlamak için makaleler, ulusal bir arşiv sitesi olarak hizmet veren ve aynı zamanda LOCKSS'in içeriği toplamasına, korumasına ve sunmasına izin veren Dergipark'ta saklanmaktadır.

Sorumluluk Reddi

Dergide yayınlanan makalelerdeki beyan veya görüşler sadece yazar(lar)ın görüşleridir ve editörler, yayın kurulu ve/veya yayıncının görüşlerini yansıtmamaktadır. Editörler, yayın kurulu ve yayıncı, makalelerin içeriğinden sorumlu değildir ve bu makalelerde ifade edilen görüşlere katılmaz. Yazarların çalışmalarının doğru ve iyi araştırılmış olduğunu ve makalelerinde ifade edilen görüşlerin kendi görüşleri olduğunu sağlamak yazarların sorumluluğundadır. Editörler, yayın kurulu ve yayıncı, yazarlara çalışmalarını bilimsel toplulukla paylaşmaları için bir platform sağlamaktadır.

Açık Erişim Bildirimi

Comparative Turkish Dialects and Literatures açık erişimli bir yayındır.

2024 Mayıs ayından itibaren dergide yayınlanan tüm içerik, Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License (CC BY-NC-ND) lisansı ile yayınlanmaktadır. Bu lisans, içeriğin ticari olmayan amaçlarla paylaşılmasını ve adapte edilmesini sağlayarak dergide yayınlanan araştırmaların yayılmasını ve kullanılmasını teşvik eder.

Mayıs 2024'ten önce yayınlanan içerik, geleneksel telif hakkı kapsamında lisanslanmıştı ancak arşiv ücretsiz olarak hâlâ erişime açıktır.

Tüm yayımlanan içerikler <https://dergipark.org.tr/tr/pub/ctdal> adresinden çevrimiçi olarak ücretsiz olarak erişilebilir.



Contact (Editor) / İletişim (Editör)

Reyhan KARKINLI

Atatürk University, Faculty of Letters, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Erzurum, Türkiye

✉ reyhan.karkinli@atauni.edu.tr

✉ turklehceleri@atauni.edu.tr

🌐 <https://dergipark.org.tr/tr/pub/ctdal>

☎ +90 442 231 81 66

Contact (Publisher) / İletişim (Yayıncı)

Atatürk University

Atatürk University, Erzurum, Türkiye
Atatürk Üniversitesi Rektörlüğü 25240 Erzurum, Türkiye

✉ ataunijournals@atauni.edu.tr

🌐 <https://bilimseldergiler.atauni.edu.tr>

☎ +90 442 231 15 16

Comparative Turkish Dialects and Literatures

İÇİNDEKİLER / CONTENTS

ARAŞTIRMA MAKALELERİ / RESEARCH ARTICLES

- 1** **Istiqlol Davri O`zbek She`riyatida Folklor Sintezi**
Bağımsızlık Devri Özbek Şiirinde Folklor Sentezi
Folklore Synthesis in the Uzbek Poetry of the Independence Period
Zilola ESHANOVA
- 9** **“Hayratu-l-Abror”da Baqo Talqini**
“Hayretül-Ebrâr”da Beka Kavramı
Interpretation of Baqa in "Hayratu-l-Abror"
Shahnoza KAXXAROVA
- 17** **So‘z va Sozning Uyg‘unligi**
Söz ve Sazın Uyumu
Harmony of Words and Music
Izzat MATYAKUBOV
- 27** **İngiliz Toyları ilə Bağlı İnanclar**
İngiliz Düğünleri ile İlgili İnançlar
Beliefs about English Weddings
Vefa İBRAHİM
- 35** **Oqova Suv Terminlari**
Atık Su Terimleri
Wastewater Terms
Dilobar XURRAMOVA

ÇEVİRİ MAKALE / TRANSLATION ARTICLE

- 41** **Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların Yeme İçme Kültürü Hakkında**
About the Food and Drink Culture of the Uyghurs in the Karakhanid Period
Esra EMET



Istiqlol Davri O`zbek She`riyatida Folklor Sintezi

Bağımsızlık Devri Özbek Şiirinde Folklor Sintezi

Folklore Synthesis in the Uzbek Poetry of the Independence Period

Zilola ESHANOVA 

Andijon Davlat Universiteti, Filologiya Fakulteti
O`zbek Filologiyasi Kafedrası, Andijon, O`zbekiston

Andijan State University, Faculty of Philology,
Department of Uzbek Philology, Andijan,
Uzbekistan



Geliş Tarihi/Received 02.02.2024
Kabul Tarihi/Accepted 13.05.2024
Yayın Tarihi/Publication Date 30.05.2024

Sorumlu Yazar/Corresponding author:
Zilola Eshanova
E-mail: z_eshanova@mail.ru

Atif: Eshanova, Z. (2024). Istiqlol davri
O`zbek she`riyatida folklor sintezi.
*Comparative Turkish Dialects and
Literatures*, (5), 1-7.

Cite this article: Eshanova, Z. (2024).
Folklore synthesis in the Uzbek poetry of
the independence period. *Comparative
Turkish Dialects and Literatures*, (5), 1-7.



Content of this journal is licensed under a
Creative Commons Attribution-
NonCommercial-NoDerivatives 4.0
International License.

ANNOTATSIYA

Maqolada istiqloq davri o`zbek she`riyatida folklor sinteziga murojaat qilish tamoyilining kuchayishi, mazkur davrda ijod qilgan shoirlar folklorga xos an`analar, janrlar, obrazlar, mifologik qarashlar sintezi orqali davr muammolarini yoritishga erisha olganligi asoslangan. Shuningdek, maqolada epos va she`riyat sintezi, baxshi obrazi sintezi g`oyaviy konsepsiya ifodasida vosita bo`lganligi Usmon Azim va Yo`ldosh Eshbek she`rlari tahlili orqali dalillangan, mifologik qarashlar sintezining namoyon bo`lishi Ismoil To`lak, Mahmud Toir va Yo`ldosh Eshbek kabi shoirlar she`rlari tahlili orqali yoritilgan.

Kalit So`zlar: Sintez, badiiy sintez, folklor sintezi, she`riyat, epos

ÖZ

Makale, bağımsızlık dönemi Özbek şiirinde folklor sentezine başvurma ilkesinin güçlendirilmesi ve bu dönemde yaşamış olan şairlerin folklor geleneklerinin, türler, imaj ve mitolojik görüşler sentezi yoluyla dönemin sorunlarına ışık tutabilme esasına dayanmaktadır. Ayrıca, destan ve şiir sentezinin, bahşi imajının sentezinin ideolojik kavramın ifadesinde bir araç olduğu, Usman Azim ve Yoldosh Eşbek'in şiirlerinin analiziyle kanıtlanmıştır, mitolojik görüşlerin sentezinin tezahürü ise İsmail Tolak, Mahmud Toir ve Yoldosh Eşbek gibi şairlerin şiirlerinin analiziyle ortaya konulmuştur.

Anahtar Kelimeler: Sentez, sanatsal sentez, folklor sentezi, şiir, destan

ABSTRACT

The article is based on the strengthening of the principle of resorting to folklore synthesis in the Uzbek poetry of the independence period, and the fact that the poets who created during this period were able to illuminate the problems of the time through the synthesis of folklore traditions, genres, images, and mythological views. Also, in the article, it is proven through the analysis of poems of Usman Azim and Yuldash Eshbek, that the synthesis of epic and poetry, the synthesis of the image of Bakhshi is a tool in the expression of the ideological concept, synthesis of mythological views is illuminated through the analysis of the poems of poets such as Ismail To'lak, Mahmud Toir and Yoldosh Eshbek. During the period of independence, Uzbek poetry underwent unique evolutions and renewals, and the principle of referring to folklore developed in various forms during this period as well.

Keywords: Synthesis, artistic synthesis, folklore synthesis, poetry, epic

Kirish

Jahon folklorshunosligi va adabiyotshunosligida folklor hamda yozma adabiyot munosabatlari, folklor an`analarining barcha davrlar adabiyoti taraqqiyotida yetakchi tamoyil ekanligi, adabiyot va folklor sintezi kabi masalalarni yoritish ilmiy muammo sifatida tadqiq etilib kelinmoqda. O`zbek adabiyotshunosligida ham adabiyot va folklor sinteziga murojaat qilish tamoyilining kuchayishi, xususan, o`zbek she`riyatida namoyon bo`lish holatlari kabi masalalar asosida yaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar shakllandiki, bu holat istiqloq davri she`riyatida qanday voqe` bo`layotgani

masalasi yoritishni adabiyotshunoslik va folklorshunoslik oldidagi dolzarb vazifalaridan biriga aylantirdi. Turli nazariy adabiyotlarda “sintez termini yunoncha—synthess—qo‘shiluv, birikuv ma‘nolarini anglatuvchi so‘zdan olingani, u real borliqdagi moddiy holda tafakkurga xos barcha narsalarning yagona yaxlitlikda, tugallikda voqe bo‘lishini bildirishi” (Imomova, 2021, b. 5), “mazmunan turli ko‘rinishdagi birliklar, narsa va hodisa, tushunchalarni umumlashtirish, uyg‘unlashtirish, biriktirish hodisasini anglatishda ishlatilishi” (Davronova, 2019, s. 15) aytiladi. Sintezning tabiiy va badiiy sintez turlari mavjud bo‘lib, tabiiy sintez biologik jarayon sifatida yuzaga chiqsa, badiiy sintez ijodkor faoliyati bilan bog‘liq holda shakllanadi. “Badiiy sintezning tabiiy sintezdan farqli bo‘lgan asosiy jihati esa u dastlab ijodkor yaratuvchining ongida hosil bo‘ladi, so‘ngra voqelikda ro‘yobga chiqadi. Adabiyotda badiiy sintez hodisasining yuzaga kelishi ijtimoiy, ma‘naviy, mafkuraviy jarayonlarning ta‘siriga bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda, eng avvalo, ijodkorning qiziqishi, intellektual darajasi, orttirgan tajribasi, dunyoqarashi, tafakkur va tasavvurining qamrov doirasi kabilar asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy sintez obraz, g‘oyalar, an‘analari, madaniy, mintaqaviy va folklor kabi turli sathlarda yuzaga kelishi mumkin.” (Imomova, 2021, b. 6)

Badiiy sintezning adabiyotshunoslikdagi mohiyati haqida ham turlicha fikrlar mavjud: “Adabiyotda ham bu tushuncha yaqin bir-necha yildan buyon mavjud bo‘lib, ikki xil ma‘noni ifodalaydi. Birinchisi biror badiiy asar ustidan qilingan umumiy qissadan hissa tarzidagi xulosalar, ikkinchisi ikki xil yot tushunchaning yonma-yon qo‘llanilishi, birikuviga nisbatan aytiladi.” (Muhammadjonova & Ergasheva, 2022, b. 227). Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, badiiy sintez mazmunan turli ko‘rinishdagi, ikki xil asosga egaligi aniq ko‘rinib turgan hodisalar qorishuvi asosida shakllangan badiiy yaratq ekan.

Adabiyot va folklor sintezi qadimdan mavjud bo‘lgan jarayon bo‘lib, turli davrlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar va epos sintezi munosabati haqida N. Rahmonov: “Eposlar yodnomalar uchun murakkab adabiy sintez komponentlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Adabiy sintez yodgorliklarning butun tarkibida bor” (Rahmonov, 2022, b. 32) deydi. Eng qadimgi turkiy adabiyot folklor zaminida, folklor sintezi asosida shakllanishining o‘zi folklor sintezining turli davrlar adabiyotida yetakchi tamoyil sifatida muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Istiqlolga erishilgandan so‘ng adabiyotda evrilishlar, yangilanishlar yuz berdi, bu holat ijodkorlarning folklor an‘analari va folklorizmlardan foydalanishdagi estetik pozitsiyasining yangilanishiga, adabiyot va folklor sinteziga murojaat qilish tamoyilining kuchayishiga, folklor sintezi ta‘sirida she‘rlar yaratilishiga zamin yaratdi. Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida tom ma‘noda turli ohanglar, an‘analari, janrlar, obrazlar, mifologik qarashlar sintezi yuz berdiki, bu holat mazkur davrda ijod qilgan shoirlar ijodida ham yaqqol bo‘y ko‘rsatdi. Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida folklor sintezining quyidagi shakllari namoyon bo‘lmoqda:

1. Epos va she‘riyat sintezi, 2. Mifologik qarashlar sintezi.

1. Epos va She‘riyat Sintezi

Istiqlol davrida xalq eposlari va she‘riyatning sintezlashuv jarayonlari yuz berdi. Mazkur davrda ijod qilgan Usmon Azim, Yo‘ldosh Eshbek kabi shoirlar eposlarga murojaat etish orqali, ya‘ni o‘tmish va bugun (yangi zamon)ni sintezlash orqali o‘z davri muammolarini, o‘ziga zamondosh bo‘lgan insonlarning millat, uning o‘tmishi, kelajagi haqidagi kechinmalarini yoritdilar. Natijada epos va she‘riyatning sintezlashuvi yuz berdi va eposga xos voqelik tasviri, ifoda usuli, obrazlar sintezi shoirlarga g‘oyaviy maqsadini ifodalashda cheksiz imkoniyatlar berdi.

Usmon Azimning “Yodgorning Ultontoz jallodlariga aytganlari” nomli she‘rida ham “Alpomish” dostoni syujeti voqeligi orqali shoir o‘z davrining fojiasi o‘laroq bilgan muammolarini bera olgan. She‘r ijroviy lirika namunasi bo‘lib, Yodgor tilidan beriladi:

Otam zindondadir, men xali yoshman,
Sag‘ir yuragimda g‘ussa kengligi.
Qamchining yomg‘iri o‘tdi-ku boshdan,
Ura ber, ura ber, navbat seniki (Azim, 2010, b. 63).

Usmon Azim “Alpomish” dostonidagi Yodgorning Ultontoz tomonidan kaltaklanishi epizodi orqali o‘tmish va bugun voqeligini umumlashtiradi, ya‘ni eposga xos mutlaq uzoq o‘tmish voqeligi yangi zamon voqeligidagi muammo ifodasiga xizmat qilgan, ya‘ni epos va she‘r xronopi sintezlangan. Olti banddan iborat ushbu she‘rda lirik syujet epos voqeligi asosida rivojlantiriladi. She‘rning to‘rt misradan iborat yakuniy bandi Alpomishning chohdan chiqishi haqidagi xabarni berish bilan xulosalanadi:

Shamolda zarraday uchadi olam,
Davronlar, zamonlar qatra elniki!
Alpomish zindonlan chiqdi – bilmaysan! –
Ura ber, ura ber, navbat seniki

She'rdagi Yodgor– el, Ultontoz jallodlari– bosqinchilar, Alpomish esa ozod yurt ramzi sifatida shoirning ozod el haqidagi orzularini ifodalashga xizmat qilgan. Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumidagi Kuntug'mishbeka chorlovi, Boybo'ringning otasiga nasihati, Oybarchin va Alpomishning g'oyibona qurgan suhbat berilgan she'rlari ham epos syujeti asosida yaratilgan bo'lib, ular eposga xos ifoda uslubi va she'riy kontekst sintezi asosida shakllangan.

Yo'ldosh Eshbekning har bandi to'rt misrali, 14 banddan iborat “Qo'rquv” nomli she'rining ilk bandi “Alpomish” dostonidagi Barchinoydan Alpomishga chopar kelishi epizodi bilan boshlanadi:

Barchinoydan bir chopar keldi,
Xabar keldi mushfiq paridan,
Yo'llar pastda qoldi o'ralib,
Ko'zlari to'rt mushtiparidan (Eshbek, 1991, b. 17).

She'rning lirik syujeti “Alpomish” eposidagi epizod tasviri asosida rivojlantiriladi:

“Barchinoyga qilingan taklif

Haqoratdir mening elimga”– deya Alpomish Barchinoyni qutqarish uchun qalmoqlar yurtiga yo'l oladi va “Nahot endi Barchinoyga kechiksam, Musofir bu yo'llar aro ichiksam”deya qo'rquvga tushadi. Shoir Alpomishning Barchinni qalmoqlar qo'lidan qutqarish uchun ketishi epizodi tasviri orqali botirning yuragidagi yor– orni yo'qotish qo'rquvi o'z davrida yo'qolib borayotganiga ishora qiladi. She'rning xulosa vazifasini o'tovchi yakuniy bandida shoirning g'oyaviy niyati yuzaga chiqadi:

Shunday qo'rquv botirlarni tark etmasin,
Shunday qo'rquv dillarga doim to'lsin,
Bizday no'noq bu qo'rquvni sharh etmasin,
Bu qo'rquvga olam jahon sharaf bo'lsin! (Eshbek, 1991, b. 118)

Davr voqeligi, xalq dostonlari an'analari asosida shakllangan ijodkor intellekti va badiiy mahorat asosida shakllangan badiiy sintez she'rning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Bizga ma'lumki, xalq dostonlari qadimdan so'z va musiqa san'atlari sintezi asosida yuzaga chiquvchi sinkretik janr hisoblanadi. Xalq dostonlarini kuylovchilar baxshi, xalfa, oqin, shoir kabi nomlar bilan atalib kelingan. Qadimda baxshi ustod, ruhlar olami bilan bog'lanuvchi shomon, xalq qahramonlarining yurt uchun qilgan ulug' xizmatlarni kuylab, o'quvchi qalbiga ulardek qahramon bo'lish ishtiyoqini soluvchi shoir kabi ma'nolarda kelgan. Bu haqda folklorshunos olim Jabbor Eshonqul: “Baxshi so'zining: terma va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi san'atkor, ustod, ruhoni, kohin, ma'rifatchi, yo'lboshchi, jarroh, kotib kabi ko'plab ma'nolari bor. Badiiy ijoddagi epik ijodkor obrazida esa yuqoridagi ko'pgina xususiyatlar qorishiq holda keladi”– deydi (Eshonqulov, 2023, b. 138). Usmon Azim va Yo'ldosh Eshbek baxshi haqidagi ushbu mifologik va xalqona qarashlarni sintezlash orqali millatni g'aflat uyqusidan uyg'otish, milliy o'zlikni anglash kabi g'oyalarini ifodalashga erishdilar. Usmon Azim va Yo'ldosh Eshbek baxshi obrazi sintezi orqali o'zlarining yurt taqdiri, millat kelajagi, o'zlikni anglash, mudroq xalqni uyg'otish kabi g'oyaviy qarashlarini ifodalaydi. Usmon Azimning Elbek baxshi, Elomon baxshi, Bovir baxshi obrazlari, Yo'ldosh Eshbekning Gala bobo kabi obrazlari xalq dostonlaridagi baxshi obrazi sintezi asosida yaratilgan.

Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumidagi she'rlarni Elbek va Elomon baxshilar birlashtirib turadi. Shuningdek, Elbek va Bovir baxshi tilidan berilgan qo'shiqlarda shoir baxshi tilidan so'zlaydi go'yo. Ushbu turkumdagi she'rlarda eposga xos voqelikni nasrda berish, kechinmalar tasvirini nazmda (dostonlarga xos 7 bo'g'inli) berish an'anasi saqlangan va baxshi obrazi orqali shoir elini, yurtini yorug'likka olib chiqishni, uni ma'naviy tarbiyalashni maqsad qilgan:

Elbek baxshi Alpomishlikni orzu qiladigan yigitlar davrasida shunday qo'shiq aytgan ekan:

Boychiborda uchmasang –
Alpomishlik qaydadir?
Yor izidan tushmasang –
Alpomishlik qaydadir? (Azim, 2010, b. 53-54)

Shoir ritorik so'roq asosidagi savollariga she'rning ikkinchi qismida javob berish bilan xulosalaydi:

Qaydadir-o, qaydadir,
Savollarim qaytadir?

Shoir ko'nglim bu so'zni,
Bolam, senga aytadir.

Baxshi obrazi sintezi shoirga o'z g'oyaviy konsepsiyasini o'quvchiga ishonarli, unga ayon bo'lgan voqelik asosida berishga xizmat qilgan.

Yo'ldosh Eshbekning "Boychibor" she'ridagi Gala bobo obrazi ham baxshi obrazi sintezi asosida yuzaga kelgan. Ushbu voqeaband she'r retrospektiv syujet asosiga qurilgan bo'lib, shoir lirik qahramonning Gala bobodan eshitgan "Alpomish" dostonidagi voqelik tasviri bilan o'z davri voqeligi tasvirini qorishtirib yuboradi:

Esimda bor biz bir to'da murg'akkina bolalar,
Tinglar edik Gala bobo dostonlarin berilib.
Mung'ayardik xush do'mbira qilsa nogoh nolalar,
Bek Alpomish g'olib kelsa qo'yar edik kerilib (Eshbek, 1991, b. 83).

Alpomishning mardligi, Barchinning matonati, Boychiborning bardoshidan kuylovchi dostonlardagi umumbashariy g'oyalar asosida tarbiyalangan lirik qahramonning Quvvatqul jo'rasi bilan tortishuvi epizodini tasvirlash bahonasida shoir o'zining g'oyaviy maqsadini beradi:

Shundan beri yigirma yil o'tib ketdi oradan,
Kattalarning ichida ham Quvvatqullar bor ekan.
Lekin xamon men ularga hayqiraman: Barchin bor!
Ana oppoq bulutlarning orasida Boychibor!

Shoir va lirik qahramon uchun "Alpomish" oddiy qo'shiq emas. U ajdodlarning vatan va uning taqdiri haqidagi orzu va armonlari mujassamlangan qo'shiq:

Sen nur kabi yayrab uchgin sen qo'shiqsan Boychibor!
Nokaslarning qo'shiq bilan axir qanday ishi bor ! (Eshbek, 1991, b. 84)

She'rdagi Alpomish, Barchin va Boychibor – el-u yurt ramzi, dostonlardagi umumbashariy g'oyalar asosida tarbiyalangan lirik qahramon esa Gala bobo dostonlari asosida fikri teranlashgan, Quvvatqullarga qarshi kurashuvchi qalbi uyg'oq inson. Shoir baxshi obrazi sintezi orqali yurtni g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi, milliy o'zlikni tanituvchi, dostonlar aytish orqali ularni mard, jasur va vatanparvar qilib tarbiyalovchi lirik qahramon kechinmalarini tasvirlashga erishgan.

Sharifa Salimovaning "Baxshiyona" turkumida ham el baxshisi obrazi allalari yodidan ko'tarilgan ayollarga qarata:

Qaddingni tik tut, ayol,
Alamlaring yut, ayol.
Boq bu besh kunlik dunyoda,
Kimning baxti but, ayol

deyish orqali "o'z elini tufroqqa otgan, o'z tilini sotgan" ilonlar hiylasini anglashga chaqiradi.

Alla aytgan tilingni
Sotgan asli kim edi?
O'z elini tufroqqa otgan,
O'tgan asli kim edi?
Qo'y, titrama, tilidan
Tonganlar ko'p dunyoda.
To'tiqushga aylanib,
Qolganlar ko'p dunyoda.
Turgil, endi ajratgil,
Haq so'z ila ro'yoni (Salimova, 2022, b. 19).

Baxshi so'zlaridan ruhsiz tanasiga jon kirgan ayol "quriyotgan ummon sohillari tomon yo'l olibdi" deyiladi "Baxshiyona"ning xulosa vazifasini bajaruvchi so'nggi qismida. Baxshi obrazi ushbu asarda ayollarni g'aflat uyqusidan uyg'otib, yosh avlodni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalashga chaqiruvchi obraz sifatida keladi.

Shu o'ringa shuni ham ta'kidlash lozimki, bu davr adabiyotidagi epos va she'riyat sintezi, baxshi haqidagi mifologik qarashlar sintezi, doston voqeligining hozirgi zamon voqeligi bilan sintezi kabi jihatlar ko'zga tashlangan ekan, ular folklordagi baxshilardan nimasi bilan farq qiladi, degan haqli savol tug'iladi. Bu davr adabiyotida yaratilgan baxshi obrazi elni ga'flat uyqusidan uyg'otuvchi, unga o'zligini anglatuvchi, farzandlarni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalashga undovchi, xullaski, xalqni yorug' kunlarga olib chiquvchi, yovni tanituvchi va uning hiylalariga qarshi sabot bilan kurashuvchi g'oyaviy rahnamo sifatida gavdalanadi. Yuqorida tahlilga tortilgan har uch ijodkor ijodida baxshi obrazi ana shunday talqinlarda keladi.

2. Istiqlol Davri O'zbek She'riyatida Mifologik Qarashlar Sintezi

Istiqlol davrida ijod qilgan ijodkorlar mifologik qarashlar sintezi asosida ham o'z davri muammolarini yoritganlar. Mifologik qarashlar sintezi sintezlashgan folklorizmlar asosida yuzaga chiqadi. Bu haqida B.Sarimsoqov: "... sintezlashgan folklorizmlar asosida yaratilgan asarda xalq e'tiqodi, uning dahosi yaratgan durdonalarning ratsional mag'zi ijodkor g'oyasi, uning estetik prinsiplari, davr talabi va muammolari bilan shu qadar kirishib, uyg'unlashib ketgan bo'ladiki, aksariyat hollarda ularning chegarasini belgilash mumkin emas" (Sarimsoqov, 2017, b. 357) deydi. Istiqlol davrida ijod qilgan Ismoil To'lak, Mahmud Toir va Yo'ldosh Eshbek kabi shoirlar ijodida mifologik qarashlar sintezi asosida g'oyaviy konsepsiyani yuzaga chiqarish yetakchilik qiladi. Ismoil To'lakning "Kech kuz" she'ri dualistik qarashlar sintezi asosida yaratilgan bo'lib, shoir o'lib tiriluvchi tabiat haqidagi mifologik qarashlarni davr muammolari bilan bog'lagan holda asar to'qimasiga olib kirish orqali folklor materiallarini sintez qila olgan:

Dala chetidagi bir juft cho'kirtak

Qora bulutlarga boqadi qotib.

Qishning qora elchis – Qarg'a

Mening yuragimda g'azab uyg'otib.

Yalang'och shoxlarga cho'zar kekirtak (To'lak, 2007, b. 132).

Bizga ma'lumki, qish o'zida tabiatning o'limini, qora qarg'a esa xaos kuchlari vakili, qora bulut esa yovuzlik semantikasini anglatadi. Lirik qahramonning yuragida g'azab uyg'onishiga "dala chetidagi bir juft cho'kirtak"ning qora bulutlarga qotib boqishi, "qora qarg'alarga qo'noq bo'lishi", qora qarg'alarning yalang'och shoxlarda qag'illagi sabab bo'lmoqda (Cho'kirtak so'zi izohli lug'atda "chaqirtikanakday o'tkir siniq-metrik shox, ildiz, poya va shu kabi" ma'nolarni anglatishi bayon qilingan – ta'kid bizniki). Qora qarg'aning "kekirtagining cho'zishi" uning qish – zulm, istibdodni chorlashiga, uning yovuz niyati insonlar boshiga solishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. O'lkani qish sovug'i – zulm, istibdod egallagan, natijada:

G'o'za uchidagi oq ko'sak, beso'z –

Sovuq niyatlarga boqadi tikka.

Shoirning ushbu she'rida mif va afsonalardagi mifologik qarashlar sintezi asosida shakllangan cho'kirtak, qora bulut, qish, qora qarg'a, sovuq, bahoriy kurtak kabi ramzlar vositasida paxta yakkahokimligi bilan bog'liq davr muammolari yoritilmoqda.

Mahmud Toirning "Otamning so'zi" she'ri afsona va rivoyatlarga xos ifoda usuli va she'riy kontekst sintezi asosida shakllangan bo'lib, she'r sarlavhasidan keyin badiiy-kommunikativ vazifa bajaruvchi nasriy qism beriladi: O'tmishda bir mo'ysafid kuni bitib, dunyodan o'tishiga ko'zi yetgach, yoniga yolg'iz o'g'lini chorlabdi:

-O'g'lim, men butun umr halol mehnat qildim, seni ham halollik bilan tarbiyaladim. Yaratgandan umidim shuki, mendan keyin ham halol yashagaysan. Tag'in: "Otam olamdan o'tdi-ku, meni kim nazorat qilardi? degan xayolga borma. Sen o'tirgan yerlarda tangadek nur tushadigan bo'lsa, shu yerdan mening ruhim seni kuzatib turadi (Mahmud Toir, 2022, b. 21). Ushbu kirish qismini bajaruvchi qaydda shoir xalq afsonalariga xos o'tmish voqeligidagi xayoliy uydirma hamda doston va ertaklardagi otaning farzandga nasihat qilish motivi orqali ajdodlar va avlodlar munosabati, o'tmish va kelajak haqidagi qarashlarini ifodalaydi:

Derazadan tushgan nurda, o'g'lim, mening ko'zim bor,

Elga qilgan savobingda bilki, yorug' yuzim bor,

Gar g'aflatda yiroq ersang, vujudingda o'zim bor,

Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman,

Diling, tiling bir bo'lsa gar men so'zingda yashayman.

Mahmud Toir ushbu she'rida xalqimizning jon va ruhlari haqidagi animistik qarashlari, shuningdek, ajdodlar homiyligi haqidagi manistik qarashlarini ifodalovchi afsona va rivoyatlar mohiyatini sintez qilish orqali poetik mazmunni shakllantira olgan:

Farzand inson ortidagi yonib qolgan chiroqdir,
Chiroq yoqsang, parvonaman, ruhim mening uyg'oqdir,
Sen unutm, oxiratda har daqiqang so'roqdir,
Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman,
Jondan aziz suygan o'g'ling ham qizingda yashayman.

Shoir she'rdan marhumlar ruhi uchun chiroq qo'yish udumi, oxirat va undagi so'roq qilinish haqidagi esxatologik qarashlar hamda chiroq ramzi orqali o'zbek xalqiga xos etnomadaniy kontekstni bera olgan. Shuningdek, she'r har bandi besh misrali to'rt banddan iborat bo'lib, muxammasga xos qofiyalangan (b-b-b-a-a, v-v-v-a-a). Shoir har bandning to'rtinchi misrasida "Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman" takrorini berish orqali asardagi didaktik ruhni ta'sirchanligini oshira olgan.

Yo'ldosh Eshbek to'rt misrali yetti banddan iborat "Ona duosi" she'rining yondosh matni bo'lgan she'r sarlavhasining o'ziyoq ushbu she'rning xalq og'zaki ijodidagi safar duolari sintezi asosida shakllanganligini ko'rsatadi. Shoir ushbu she'rini xalq ertak va dostonlariga xos farzandga nasihat qilish motivi stilizatsiyasi asosida yaratadi hamda safar duolari haqidagi mifologik qarashlar sintezi orqali umrboqiy insonparvarlik g'oyalarni o'quvchi qalbiga singdirishga harakat qiladi:

Safar qilsang oq yo'l, bolam, omon yur,
Razildan qoch va oqillar tomon yur,
Ukalarimga sog'intirmay kelib tur,
Hech bo'lmasa ikki enlik xat bit, bolam (Eshbek, 1991, b. 120).

She'rning lirik kirish vazifasini bajaruvchi ilk bandida onaning bolasiga qilgan nasihatlar asosidagi tematik kompozitsiya keyingi bandlarda rivojlantirib boriladi:

Shoir bo'lsang yomonlikka o'q bo'lgin,
Dardlilarning dillarini yorit, bolam.

Yoki

Pastlik qilma Alpomishning avlodisan,
Muhtojlarning g'amlarini arit, bolam.

She'rning so'nggi bandi safar duolari kompozitsiyasiga xos xulosaviy qism bilan yakunlanadi:

Yo'ling ochiq bo'lar, bo'lsang sen ochiq qo'l,
Ovmin endi, polaponim, senga oq yo'l.

Shoir she'rdan folklor asarlariga xos bo'lgan yuksak g'oyalarni sintez qila olgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o'zbek she'riyatida folklor sinteziga murojaat qilish tamoyili kuchaydi, natijada an'analar, janrlar, obrazlar, mifologik qarashlar sintezi orqali shoirlar o'z davri muammolarini yoritishga erishdilar. Istiqlol davrida ijod qilgan Usmon Azim va Yo'ldosh Eshbek kabi shoirlar epos va she'r, epos va alla, epos va qo'shiq janri (musiq) sintezi, baxshi obrazi sintezi orqali zamondoshlari kechinmalarini yoritishga, millatning o'tmishi va kelajagi haqida g'oyalarni o'quvchiga singdirishga erishganlar. Shuningdek, Ismoil To'lak, Mahmud Toir va Yo'ldosh Eshbek kabi shoirlar ijodida mifologik qarashlar sintezi barcha davrlar uchun muhim bo'lgan insonparvarlik g'oyalari ifodasiga, vatan, yurt ozodligi, millat kelajagi haqidagi xalqimizning barcha davrlarda muhim bo'lgan mavzularni yoritish maqsadiga yo'naltirilgan.

Istiqlol davri o'zbek she'riyatida folklor sinteziga murojaat qilish tamoyili kuchaydi, natijada an'analar, janrlar, obrazlar, mifologik qarashlar sintezi orqali shoirlar o'z davri muammolarini yoritishga erishdilar. Istiqlol davrida ijod qilgan Usmon Azim, Yo'ldosh Eshbek, Sharifa Salimova kabi ijodkorlar epos va she'r, epos va alla, epos va qo'shiq janri (musiq) sintezi, baxshi obrazi sintezi orqali zamondoshlari kechinmalarini yoritishga, millatning o'tmishi va kelajagi haqidagi g'oyalarni o'quvchiga singdirishga erishganlar. Epos va she'r sintezi doston syujetidan parcha keltirish, doston obrazlari nomini keltirish, ularga ishora qilish (talmeh tasvir vositasi) orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, Ismoil To'lak, Mahmud Toir va Yo'ldosh Eshbek kabi shoirlar ijodida mifologik qarashlar sintezi barcha davrlar uchun muhim bo'lgan insonparvarlik g'oyalari ifodasiga, vatan, yurt ozodligi, millat kelajagi haqidagi xalqimizning barcha davrlarda muhim bo'lgan mavzularni yoritish maqsadiga yo'naltirilgan.

Hakem Deęerlendirmesi: Dış baęımsız.

Çıkar Çatışması: Yazar, çıkar çatışması olmadığını beyan etmiştir.

Finansal Destek: Yazar, bu çalışma için finansal destek almadığını beyan etmiştir.

Peer-review: Externally peer-reviewed.

Conflict of Interest: The author have no conflicts of interest to declare.

Financial Disclosure: The author declared that this study has received no financial support.

Adabiyotlar/Kaynaklar/ References

Azim, U. (2010). *Fonus*. Sharq Nashriyoti. (In Uzbek)

Davronova, Sh. (2019). *Istiqlol davri O'zbek romanlarida Sharq va G'arb an'alarining badiiy sintezi*. Samarqand Davlat Universitet Nashriyoti. (In Uzbek)

Eshbek, Y. (1991). *Mangu masofa*. Adabiyot va San'at Nashriyoti. (In Uzbek)

Eshonqulov, J. S. (2023). Baxshi obrazining mifopoetik talqini. (J. Eshonqulov, O. Axmedova & B. Matyoqubov, Mas'ul muxarrirlar), *Zamonaviy baxshichilik san'ati: Oltin merosning yangi ohanglari mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya* (b. 136-144). Nodirabegim Nashriyoti. (In Uzbek)

Imomova, G. M. (2021). *O'zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning poetik kontseptsiyasi*. Qarshi Universitet Nashriyoti. (In Uzbek)

Muhammadjonova, G., & Ergasheva, F. I. (2022). Xalq dostonlarida badiiy sintez: So'z va musiqa san'atlari asosida. *International Scientific Journal of Biruni*, 1(2), 227-232. (In Uzbek)

Rahmonov, N. (2022). *Folklor va yozma adabiy aloqalar*. Nashriyot. (In Uzbek)

Salimova, Sh. (2022). *Tanlangan asarlar*. Adabiyot Nashriyoti. (In Uzbek)

Sarimsoqov, B. (2017) Folklorizmlar tipologiyasiga doir: XX asr O'zbek folklorshunosligi. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*. Davlat Ilmiy Nashriyoti.

To'lak, I. (2007). *Erk shabadalari*. Nihol Nashriyot. (In Uzbek)

Toir, M. (2022). *Tanlangan asarlar*. Adabiyot Nashriyoti. (In Uzbek)

“Hayratu-l-Abror” da Baqo Talqini

“Hayretül-Ebrâr” da Beka Kavramı

Interpretation of Baqo in "Hayratu-l-Abror"

Shahnoza KAXXAROVA 

Xalqaro Innovatsion Universiteti, Pedagogika va
Iqtisodiyot Fakulteti, Ijtimoiy-Gumaniter Fanlar
Kafedrası, Qarshi, O'zbekiston

International Innovation University, Faculty of
Pedagogy and Economics, Department of Social and
Humanities, Karshi, Uzbekistan



Geliş Tarihi/Received 02.04.2024
Kabul Tarihi/Accepted 24.05.2024
Yayın Tarihi/Publication Date 30.05.2024

Sorumlu Yazar/Corresponding author:
Shahnoza Kaxxarova
E-mail: shaxnozaqahhorova7331@gmail.com

Atif: Kaxxarova, Sh. (2024). “Hayratu-l-
Abror” da baqo talqini. *Comparative Turkish
Dialects and Literatures*, (5), 9-16.

Cite this article: Kaxxarova, SH. (2024).
Folklore synthesis in the Uzbek poetry of the
independence period. *Comparative Turkish
Dialects and Literatures*, (5), 9-16.



Content of this journal is licensed under a Creative
Commons Attribution-NonCommercial-
NoDerivatives 4.0 International License.

ANNOTATSIYA

Maqolada tasavvuf va unga aloqador tushunchalarning Islom bilan chambarchas bog'liq ekaniga shubha yo'q. Tasavvuf falsafasini, ayniqsa, fano va baqo masalasini jiddiy o'rganish, uning Sharq falsafasi, badiiy adabiyotidagi talqinlari mohiyatini to'la ochib berish va dunyo ilm-faniga taqdim eta olish juda dolzarbdir. Demak, O'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodidagi fano, baqo talqinlarini maxsus tekshirish ayni nuqtai nazardan ham ahamiyatli. Ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror” asarida baqo maqomi, solikning baqoga olib boradigan fano martabalari, solikni fano va baqoga olib boruvchi: lymon, Islom, adolat, karam, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm kabi bir qancha fazilatlarga alohida-alohida to'xtalib o'tildi, ularning mohiyati xususida mutasavvufning nazariy qarashlari va ushbu martabalarining badiiy talqini masalasi tahlil etilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada fano va baqo talqini masalasi Alisher Navoiyning lirik janrdagi asarlaridan liro-epik asarlaridagi farqlari ochiqqlangan.

Kalit So'zlar: Solik, maqom, suluk, fano, baqo

ÖZ

Tasavvuf ve benzeri fikirler tartışmasız bir şekilde İslam ile güçlü bir şekilde ilişkilidir. Doğu felsefesi ve edebiyatındaki yorumlarını tam olarak anlamak ve bunları küresel ölçekte bilim camiasına aktarabilmek için tasavvuf felsefesini, özellikle de fena ve beka kavramıyla ilgili olarak derinlemesine incelemek çok önemlidir. Dolayısıyla, aynı perspektiften bakıldığında, Özbek klasik edebiyatının önde gelen isimlerinden Alishir Nevai'nin eserlerinde “fena” ve “beka”nın nasıl yorumlandığı da önem arz etmektedir. Bu makalede Hazret-i Alishir Nevai'nin “Hayratü-l-Ebrar” adlı eserinde beka makamı, saliki, beka ve fena makamına ulaştran aşamalar gibi iman, İslam, adalet, ahlâk, edep, kanaat, sadakat, sevgi, doğruluk, bilgi vb. pek çok konuya değinilmiş, mutasavvıfların bu makamların özüne ilişkin teorik görüşleri ve sanatsal yorumları incelenmiştir. Aynı zamanda makalede beka ve fena makamı kavramlarının yanı sıra Alishir Nevai'nin lirik türdeki eserleri ile lirik-epik eserleri arasındaki farklar da ortaya konulmuştur.

Anahtar Kelimeler: Sâlik, makam, sülük, fena, beka

ABSTRACT

Sufism and similar ideas are unquestionably strongly associated with Islam. In order to fully understand their interpretations in Eastern philosophy and literature and to transfer them to the scientific community on a global scale, it is very important to study sufi philosophy in depth, especially in relation to the concept of fano and baqo. Therefore, from the same perspective, it is also important how “fano” and “baqo” are interpreted in the works of Alisher Navoi, one of the leading figures of Uzbek classical literature. In this article, in Hazret-i Alishir Navoi's “Hayratü-l-Ebrar”, many topics such as the maqam of baqo, the stages that lead the saliah to the maqam of baqo and fano, such as faith, Islam, justice, justice, morality, manners, decency, conviction, loyalty, love, truthfulness, knowledge, etc., the theoretical views and artistic interpretations of the Sufis regarding the essence of these maqams are examined. At the same time, in the article, the concepts of the maqam of fano and baqo, as well as the differences between the lyrical works of Alishir Navoi and his lyrical-epic works are also revealed.

Keywords: Solik, maqom, suluk, fano, baqo

Kirish

Fanofilloh – Xudoni bilish, baqobilloh esa Xudoni topish, Xudo bilan birga bo'lishdir. XI asr olimi Ibn al-Furaqga ko'ra, aynu-l-yaqin baqoning aynan o'zidir (Ibn Fûrek, 2014). Fano Ollohni bilish, tanishda sayr etiladigan sayru suluk maqomlarining nihoyasi emasdir. Bu masalada Ibn Arabiy

“Futuhot”da zikr etishicha, ba’zi so’fiylar fanoni borish mumkin bo’lgan so’nggi maqom deb hisoblaganlar. Holbuki, fanodan so’ng *komil maqom*, *komil boqish*, *komil mushohada* deya ta’riflanuvchi *baqo* maqomi boshlanadi. Ammo Ibn Arabiy “Fususul-hikam”da “Agar Haq zohir bo’lsa, xalq Unda yashirin va botindir”, -deydi. Bu asarni o’z tiliga tarjima qilgan turk olimi Ahmad Avniy Qonuq ushbu fikrni shunday sharhlaydi: “Haq zohir va xalq botin, sirli tarzda voqe’ bo’lgan qurbga “*qurbi faroiz*” derlar. Chunki vujudning asli Haqdir, bu vujud vojib va farzdir hamda bu qurbning sohibi mahbubi ilohiydir. Uning suluki jazbadan so’ngradir, baqosi fanosidan avvaldir” (Muhyiddin Ibnü’l-Arabî, 2017, b. 250).

Mazkur qarashlar “maqom va hollarda iyerarxiya kuzatilishi ham, kuzatilmaligi ham mumkin”, -degan xulosaga kelishimizga asos bo’ladi. Hazrat Alisher Navoiyning dostonlari baqo masalasida lirik janrdagi asarlaridan iyerarxik badiiy talqinga egaligi bilan farqlanadi. Ya’ni dostonlarda solikning baqoga yetish uchun qaysi yo’ldan yurishi, qanday manzillarni bosib o’tishi kerakligi aniq tartib va ketma-ketlik asosida, tizimli tarzda tasvirlangan. Ularga ko’ra baqo safarida yo’lovchi, albatta, *talab*, *ishq*, *ma’rifat*, *istig’no*, *tavhid*, *hayrat* hamda *faqru fano* maqomlaridan o’tishi kerak.

Qolaversa, bu yo’lda solikning qanday illatlardan qutilishi, qanday fazilatlarini o’zida shakllantirmog’i shartligi batafsil ochiqdigan. Ikk so’fiylar fano va baqo istilohlarini metafizik mazmunda emas, axloqiy va psixologik ma’noda ishlatishgan (Haqqul, 2021) Shuning uchun ham Abdulkarim Qushayriy “So’fiylar fano istilohi ila yomon, tuban xulqlarning yo’qotilishiga, baqo orqali esa yaxshi va go’zal insoniy sifatlarning yuzaga chiqarilishiga ishorat etishgan”, – deydi (Kuşeyri, 1991, b. 196). Ya’ni fano bandaning nafsoniy orzularidan yiroqlashishi bo’lsa, baqo yomon sifatlarning o’rniga yaxshi va go’zal bo’lgan axloqiy sifatlarning qoyim bo’lishidir.

Navoiy “Lisonu-t-tayr”da buning yo’li riyozat ekanini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, riyozat insondagi hayvoniy sifatlarni yo’q qiladi. Kishi shu xilda o’z nafsoniyatini inkor eta olsa, unda ruhiy poklikdan boshqa hech narsa qolmaydi:

*Chun riyozat raf’ etib ruhoniyyat,
Salb bo’lg’och kimsadin nafsoniyat.
Qolmag’ay ruhoniyyatdin o’zga hech,
Sen taxallufdin bu ma’ni ichra kech.*

Inson zotida shunday sharaf mujassam etilganki, agar u o’zidagi yomon axloqni bartaraf etib, fir’avnlikka taqlid etmasa, unda Musoga o’xshash eng yaxshi suratlardan o’zga sifat qolmaydi. Yoki sharaf ganjiga egalik qilib, o’zidagi Abu Jahllik xislatini yo’qotsa, Habibullohdek yuksak sharafga erishadi hamda borlik va yo’qlikdan ogoh bo’ladi. Vahdat me’rojiga chiqib, poklik siridan unga xabar yetadi. Ko’zi vasi nuridan shunday yorishib ketadiki, bu paytda oradan “menlik” va “senlik” yo’qoladi:

*Bordur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.
Bo’lmasa fir’avnlig’ning payravi,
Qolmas ondin juz sifoti musaviy.
Yo sharaf ganjiga topib ahlliq,
Salb qilsa siyrati Bu Jahlliq.
Shon anga bo’lur Habibullohdek,
Bud ila nobuddin ogohdek.
Kim qilib me’roji vahdatqa guzar,
Li ma’ Olloh sirridin bergay xabar
Vasl nuridin ko’z ul yanglig’ yorur,
Kim aroddin menliku senlik borur.*

Jurjoniy va Qushayriy ham baqoni maqtalguvchi sifatlarning mavjudligi, fanoni esa tuban sifatlarning yo’qolishi o’laroq ta’rif etishgan. (Cürçânî, 2021, b. 58). Ushbu maqolada Navoiyning epik asarlaridagi baqo talqinlari xususida so’z yuritar ekanimiz yuqoridagi asoslarga tayangan holda, avvalo, zikr etilgan jihatga e’tibor qaratmoqni o’rinli deb o’ylaymiz.

Alisher Navoiy epik va liro-epik asarlarida bu kabi illat va fazilatlarining bir qanchasiga alohida-alohida to’xtalib o’tadi. Masalan, “Hayratu-l-abror”da ularning har birini butun bir bob miqyosida batafsil tahlil va talqin qiladi. Quyida baqoga daxldor fazilatlarining badiiy talqinlariga to’xtalamiz.

Iymon Talqini

Baqoga oid go'zal sifat va fazilatlarining boshida, albatta, iymon turadi. Shu sababli, dostonning ilk maqolati ayni masalaga bag'ishlanadi. Bobning nasriy shakldagi kirish qismida ijodkor iymon xususida o'z iqtidori yetganicha fikr yuritmoqchi ekanini ta'kidlaydi: "(Mazkur bob) imon sharxi(dan iborat) bo'lib, "Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg'ambarlariga imon keltirgan har bir kishi (dedi): (Har kimning) qilgan yaxshi amali o'zi uchundir va yomon amali ham o'zining bo'ynigadir" deyilishidan maqsad (imon shundagina iborat) degan gap emas va agar (masalaga yuzaki qaraydiganlar) imon degani shudir, desa, tushungan odamlar (bunday) demaydilar va (shu munosabat bilan) mohiyat daryosida o'z ojizona suzishimni namoyon etmoq va farishtalar uchgan havoda biroz qanot qoqmoq va kitoblarning sahifalari yuzasidan bir necha so'z aytmoq va payg'ambarlar yurgan ko'chada bir necha qadam chopmoq va qiyomat ko'tarilganda tik turmoq va taqdir xususida o'ziga yarasha iqtidor bilan kuy kuylamoq".

Ushbu jumladagi "farishtalar uchgan havoda biroz qanot qoqmoq; payg'ambarlar yurgan ko'chada bir necha qadam chopmoq" kabi birikmalar keladi. Farishtalar va payg'ambarlarning baqodan bahramand ekanliklarini hisobga olsak, iymon masalasidagi fikrlar baqoga daxldorligi yana bir bor o'z isbotini topadi.

Navoiy insonlikning eng birinchi belgisi, nishonasini iymon deb biladi:

*Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.*

Keyingi bobda esa iymon talqiniga bag'ishlangan Boyazid Bistomiy haqidagi hikoya beriladi. Navoiy bob so'ngida Haqdan shuni so'raydi:

*Yo Rab, o'shul tuhfani oxir nafas,
Ayla Navoiy ila hamrohu bas.
Qullug'ungga mahkam et imonini,
Aylagil imonidek aymonini.*

Ya'ni, "Yo Xudo, narigi dunyoga olib boriladigan tuhfa (imon)ni Navoiy bilan hamroh qilgaysen va shu kifoy. Uning imonini xizmatingga mahkam qilib, va'dasini imonidek qil!"

Islom Talqini

Navoiy nasriy kirishda Islomning tinchlik, saodat, latofat, muhabbat dini ekanini kitobot san'ati asosida isbotlab ko'rsatadi. Bobning dastlabki baytlaridayoq olamdagi xalqlarni Pok Parvardigor najot ahli va halok guruhiga bo'lishi, ulardan biri sanamlarga sig'inadiganlar, ikkinchisi Islom jamoasi ekani keltiriladi. "Kufr eli malomat yo'lini tutdi, Islom jamoasi salomatlik, sog'lomlik bo'yicha ketdi. Shuning uchun u biriga do'zax o'ti maqom bo'lgan bo'lsa, Islom eli salomatlik uyini tanladi", deydi muallif:

*Olam aro xalqni Yazdoni pok
Ahli najot etti-yu ahli halok.
Bu birisin obidi asnom bil,
Ul birisin zumrai Islom bil,
Kufr eli yo'l topti malomat sori,
Zumrai Islom salomat sori.*

Bu maqolatga Ibrohim Adhamning Ka'baga namoz bilan borgani va Robia Adaviyaga Ka'baning niyoz bila kelgani haqidagi hikoyat ilova qilinadi. Hikoyat so'ngida Ibrohim Adham Robiadan shunday deb so'raydi: "Ey pok qadam, sen farishtalardek, osmonni ham kezib chiqishga qodirsan! Ammo ayt-chi, nima uchun men shuncha yo'l yurib azob chekdim, azobni men chekdimu xazina senga tegdi?"

*Robia dedi anga: "Ogoh bo'l,
Kim necha yil bodiyada borcha yo'l.
Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano".*

Ya'ni, "Tushun! Bir necha yil cho'lda barcha yo'llarni bosib o'tar ekansen, sening ishing namoz o'qimoq bo'ldi, xolos! Men esa Unga istagimni aytdim, ishva, noz qildim, yalinib-yolbordim! Namoz o'qib, riyo qilib, erishgan hosiling shudir. Menga esa yalinib-yolborishim va o'zligimdan kechganligim shu mevani berdi".

Hikoyatdan Robianing baqoga yetganini va bu mevani qo'lg'a kiritishida, eng avvalo, Islom ahli bo'lgani, ibodatni yuksak xushu' bilan amalga oshirgani, o'zlugidan kechgani – fano bo'lgani sababchi ekanini anglash mumkin.

Adolat Talqini

“Al-Adl” – Haqning sifot ismlaridan biri. Baqoda Haq qulida O'zining sifatlari bilan tajalli etadi. Dostonning uchinchi maqolati ana shu sifotning badiiy talqiniga bag'ishlanadi. Garchi bu maqolat “Salotin bobida...” deb nomlangan bo'lsa-da, aslida unda adolat xususidagi nazariy qarashlar bayon qilinadi. Navoiyga ko'ra, eng yuksak va maqtovlarga sazovor Tangri sultonlarning hukmdorlik boshiga podshohlik dubulg'asini shuning uchun kiydirdiki, “ularning adolatlari ko'zining chashmasidagi zilol suv mamlakat bog'ini qondirsin, toki bu bog'da tinchlik va farog'at gullari ochilsin”. Maqolatda shoir adolat haqidagi qarashlarini ochiqlar ekan, keyingi bobda bu fazilatga doir Shoh G'oziy va undan adolat da'vosida bo'lgan kampir haqidagi hikoyatni keltiradi. Bob so'ngida shoir shunday deydi:

*Zoli falakdin necha ko'rsang alam,
Shah chu qilur adl, Navoiy, ne g'am.
Soqiyi gulchehra, ketur jomi adl,
Ko'rki, ne gullar ochar anjomi adl.
Adl ayog'in tutki, bo'lub shod ichay,
Odili davronni qilib yod ichay.*

Qur'onning ilk tasavvufiy ta'vilini amalga oshirgan Abdulloh Tustariy “Zumar” surasi 5-oyatidagi “U zot osmonlaru yerni haq ila yaratgandir” oyatidagi “haq” so'zini “adl” deb ta'vil qiladi. (Uludağ, 2016, b. 24) Bu ham adolatning solikning baqoga yetmog'i uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Karam Talqini

Allohning sifot ismlaridan biri “Kariym”dir. U “birov so'ramasa ham, evaz bo'lmasa ham narsalarni ko'plab ato qiluvchi, lutf bilan itob qiluvchi, qarama-qarshiliklardan pok bo'lgan, karamli ishlar va xislatlar sohibi” ma'nosida kyeladi. Baqo topib, bu sifotni o'zida jo qilgan karam sohibini Navoiy shunday ulug'laydi:

*Boshing uza judu saxo afsari,
Afsaring ustida karam gavhari.
Gavhari zoting topib oncha sharaf,
Kim yeti ko'k huqqasin aylab sadaf.
Qadring o'lub torami axzar kibi,
Durru guhar sochmog'ing axtar kibi.*

Ya'ni, “Boshingga kiyganing ehson va saxovat tojidir, tojning ustidagi esa xayru karam gavharidir. Saxiylıktan zoting gavhari shuncha sharaf topdiki, yetti osmondagi eng qimmatbaho toshlar unga sadaf bo'ldi. Natijada sening jamiyatdagi qadring osmon ko'kining qadriday yuksaklashdi, sochgan durru gavharlaring yulduzlarga tenglashdi.

Karam sohibi bo'lgan Haq oshig'iga hatto Hotami Toyi ham qul bo'ladi, degan fikrni olg'a surar ekan Navoiy ushbu maqolatga karam va himmatda Hotamni ham hayratlantirgan gado haqidagi hikoyatni ilova qiladi. Hotam yuz tuya so'yib tashkil qilgan ziyofatiga nega bormaganligini so'rar ekan, gado shunday javob qaytaradi:

*K-ey solibon hirs ayog'ing'ga band,
Ozu tama' bo'ynuga bog'lab kamand.
Vodiyi g'ayratg'a qadam o'rmag'on,
Kunguri himmatg'a alam urmag'on.
Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj.*

Ya'ni “Ey, oyog'ini ochko'zlik band etgan, bo'yniga g'araz va qizg'onchiqlik sirtmoq boylagan, ey g'ayrat vodisida qadam bosmagan, himmat qal'asiga bayroq tikmagan odam, sen ham bu tikan tashish azobini tortib ko'r. Hotami Toyi minnatini esa torta berma. Qiynalib, mashaqqat bilan bir tanga topish birov bergan xazinadan yaxshiroqdir” Buni eshitgan Hotam shunday iqroga keladi:

*Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi.*

Ya'ni: "Uning so'zlari shunday o'rinli ediki, shuning uchun ham uning himmati menikidan ortiq edi".

Hikoyatni o'qigach, shunday o'rinli bir savol paydo bo'ladi: o'tin terib, o'z xizmati bilan kun kechiruvchi, karam va himmatda Hotamga saboq bergan bu obrazni Navoiy nega "gado" deb keltirgan? Bizningcha, buning ikki sababi bor. Birinchisi, poetik usul o'laroq shunday versiya tanlangan. Ijodkor jamiyatdagi eng g'arib kishi – gado bilan eng boy kishi – Hotamni tazod yo'li bilan taqqos qilish orqali karam va himmat egasi bo'lgan eng nochor kishi ham eng badavlat kishidan badavlatroqdir, degan fikrni ilgari surgan. Buning dalili sifatida "Favoyidu-l-kibar"dagi ayni shu mavzudagi 12-qit'ani keltirish mumkin:

*Kishiki, ilgini ustun tilar, saxo qildik,
Qo'lida zahri halohil-u gar Xizr suyidur.
Ki, berguchi agar o'lsun gado-yu olg'uchi shoh,
Berur ilik yuqoriyu olur ilik quyidur.*

Ya'ni: "Kishi qo'li baland bo'lishini tilasa, buning yo'li – saxovatdir. Agarki kishining qo'lida o'ldiruvchi zahar bo'ladimi yoki abadiy hayot baxsh etuvchi Xizr suvi, uni yuqori tutgani yaxshidir. Chunki berguvchi gado-yu, olguvchi podshoh bo'lsa ham, berguvchi qo'l yuqorida olguvchi qo'l esa pastda bo'ladi".

Ikkinchi sabab shuki, muallif "gado" so'zini "darvesh, solik" so'ziga ma'nodosh o'laroq qo'llagan.

Adab Talqini

Tasavvufda odobning ham bir qancha tarmoqlari bor. Turk olimi Sulaymon Uludog' o'zining "Tasavvuf atamaları lug'ati"da odobning tasavvufiy talqini haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi (Uludağ, 2016, b. 22). Jumladan, odob, avvalo, amal qilinishi kerak bo'lgan tarbiya qoidalari, doimo hisoblashmoq kerak bo'lgan qoidalar, ta'qib qilinishi kerak bo'lgan yo'l-yo'riqni, eng yaxshi hol va harakatlar, o'lchovli xulq-atvor, kishilar orasidagi yaxshi aloqalarni ta'minlovchi qoidalarni anglatadi. *Odobi so'fiyya* tasavvufiy atama sifatida so'fiylar amal qiladigan, amalda tatbiq qiladigan qoidalarni anglatadi. Tariqat ahli muhim sanaydigan va diqqat qaratadigan qoidalarga *odobi tariqat* yoki *odob va arkon* deyiladi. Tasavvufda zamon, makon, suhbatdosh, hol va maqomga ko'ra bir qancha odoblar bor. Tasavvuf majlislarida yig'ilganlar amal qilishi kerak bo'lgan odob va usulga *odobi suhbat*, *odobi ishrat va suhbat*, shayxning amal qilishi kerak bo'lgan qoidalarga *odobi shayx*, muridning tobe' bo'lishi kerak bo'lgan qoidalarga *odobi murid* deyilgan. Bu usul va qoidalarga amal qilmoq maqsadga erishmoqni ta'minlagani uchun "usulga amal qilmagan vusuldan mahrum qolur" deyilgan va *tarki adab* odobsizlik sanalgan. Ibn Ato "Solihlarning odobiga amal qilgan *hurmat*, avliyoning odobiga amal qilgan *Allohga yaqinlik*, siddiqlarning odobiga amal qilgan *tomosha*, payg'ambarlarning odobiga amal qilgan *uns* va *inbisot* maqomiga loyiq holga kelur",- deydi. Tasavvufda kishining nafsigat tatbiq qiladigan odobga *odobi nafs* deyiladi. Sulukning har martabasida ahamiyat berilishi kerak bo'lgan bir odob bordir. So'fiylar zohiriy, ya'ni shar'iy va botiniy odobdan bahs yuritadilar. Zohiriy odob tasavvufning tamalidir. Botiniy odob esa tafakkur va ko'ngil hollari bilan aloqador. Kichiklarga farzand shafqati, buyuklarga ota hurmati hamda tengdoshga qardoshlik muhabbatini ko'rsatmoq tasavvuf odobining tamali, asosidir.

Navoiy odob haqida yozar ekan yuqorida uning tasavvufiy izohida keltirganimiz deyarli barcha jihatlarining badiiy talqinini beradi. Jumladan, quyidagi misralarda odobning kichiklarga baxtiyorlik, ulug'larga esa yuksak martabalilik boisi ekanini ta'kidlab, shunday pand qiladi:

*Soyiri nos ichra ulug' to kichik,
Yoxud aro yerda vasat chargalik.
Kimki ulug'roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak.
Kimniki qilsang mutavassit xayol,
Asra aning hurmatida e'tidol.*

Ya'ni: "Yurgan odamlar ichidagi kattadan-kichigigacha, yoki oraliqdagi o'rta martabalikka ham, kimki katta bo'lsa, uning xizmatini qilish kerak, kimki kichik bo'lsa, unga shafqat ko'rsatish kerak. Kimni o'rta yosh deb xayol qilgan bo'lsang, uning hurmatini ham me'yorida asra.

Bobda odob, hayo, tavozu' bilan birga tarki adab, ya'ni odobsizlik haqida ham batafsil fikr yuritiladi. Adab talqinida No'shiravon haqidagi hikoyat keltiriladi. No'shiravon timsolida ma'lum bo'ladiki, adab sifatini o'zida hosil qilgan baqo talabgori butun vujudi bilan borliqqa singib

ketadi. Nafaqat insoniyat, balki hayvonotu o‘simlik dunyosini ruhan his qila boshlaydi. Shu holga yetgan No‘shiravon nargis gulining unga boqib turgan ko‘zidan hayo qilib, gulrux yorini bag‘riga bosmaydi. Oqibatda mana shu hayosi uni butun olamga shoh qildi.

Qanoat Talqini

Bu tushuncha tasavvufda yashamoq uchun zaruriy bo‘lgan ehtiyojlardan tashqari nafsning butun orzu va hayvoniy istaklaridan uzoq turmoqni anglatadi. Qanoat yemoq, ichmoq va boshqa turli masalalarda haddidan oshmaslikdir (Cebecioğlu, 2009, b. 191). Qanoat tushunchasi aksar hollarda sabr so‘zi bilan yonma-yon ma‘nodosh keladi. Asmoul husnadan biri “Sabur”dir. U “o‘ta sabrli” anglamini beradi. Sabr tasavvuf lug‘atlarida shunday izohlanadi: 1. Chidam, chidamlilik, qanoatdagi ustuvorlik. 2. *tas*. Boshga kelgan musibatlar tufayli Allohdan o‘zgaga shikoyatchi bo‘lmaslik, arz qilmaslik, dardini poylashmaslik, o‘zgalarning o‘ziga achinishiga yo‘l qo‘ymaslik. Bu maqomga yetgan qul duch kelgan muammolar va balolar yetkazgan aziyatdan yolg‘iz Allohga arz etar va Uning inoyatini istar. Arz va shikoyatini Allohga yo‘llamoq qazoga rizo bo‘lmoq holiga zid kelmaydi. Faqirning sabrli, boyning shukur ahli bo‘lmog‘i lozim. Sabr musibat bilan qarshilashilgan ilk onda, haromdan uzoq turmoqda va diniy amrlarga rioya qilmoqda sinaladi. Sabrning so‘ngi – salomatlikdir. Sabr tasavvufda bir maqomdir. Sabr qilganlarning murodlariga yetishlariga, zafar qozonishlariga ishonilur (Uludağ, 2016, b. 302-303).

Navoiyga ko‘ra, qanoat yo‘q bo‘lmaydigan xazina va jahd etib uni qo‘lga kiritgan kishi haqiqiy boylikka ega bo‘ladi:

*Naqdi qanoatg‘a chu yo‘qdur fano,
Jahd etu bu naqd ila topg‘il g‘ino.*

Shoir qanoatli darveshni ta‘ma qiluvchi shohdan martabali deb biladi:

*Shah chu tama‘ qildi erur luqmaxoh,
Qonii darvesh erur podshoh.*

Navbatdagi bobda ijodkor qanoat haqida hikoya keltiradi. Unda forsda Chin sari ikki do‘st yo‘lga chiqadi. Hikoya so‘ngida safarga chiqqan qanoatli kishi podshoh ko‘tarilgan holda, qanoasiz hech vaqoga erishmaydi:

*Oni qanoat qilibon shahriyor,
Muni tama‘ ranji qilib xoksor.*

Xulosa qilish mumkin bo‘ladiki, insonlar ham bu olamda hikoyadagi ikki yo‘lovchi kabi safar qiluvchilardir. Qanoatlilar umr hikoyasi so‘ngida baqo ganjiga erishadilar, qanoatsizlarning umri besamarlik bilan o‘tadi.

Vafo Talqini

Vafo va siddiqlik payg‘ambarlarning, avliyolarning sifatlaridandir. Vafoning ilk ma‘nosi bog‘lilik, tobe‘likdir. Bu tushuncha tasavvufda ruhni g‘aflat uyqusidan uyg‘otmoq, zehnni dunyo dag‘dag‘asi bilan mashg‘ul qilmaslik, so‘zda samimiy bo‘lish, ruhning to‘g‘rilik, haqiqat ichida bo‘lishini anglatadi. Qolaversa, Azalda – bazmi Alastda Allohga berilgan so‘zga, va‘daga sodiq qolmoqni bildiradi. Yana, insonlarga berilgan ahdni qo‘rismoqni ifodalaydi. Qur‘onda “Menga bergan ahdingizga vafo qilingki, sizga bergan ahdimga vafo qilayin”,-deya buyuriladi (Baqara, 40). Qilingan bitimlarga va berilgan ahdlarga sadoqat va vafo insonlikning tamal inonchlaridan, asosiy prinsiplaridandir. Avom ibodat uchun, ziyolilar hamda saralanganlar ubudiyat uchun Haqqa so‘z berganlar. Bunga vafo ko‘rsatmoqlari kerakdir (Uludağ, 2016, b. 377).

Navoiy to‘qqiz qavat osmonda yuz minglab gavharlar mavjligi, ammo ular ichida shunday biri borki, hech qaysi gavhar bebaholikda u bilan tenglasha olmaydi. U gavharning nima ekanligi haqidagi savolga muallif shunday javob beradi:

*So‘rsa otin ahli safo javhari,
Oh chekib deki, vafo gavhari!*

Vafo talqinida bir-biriga vafo qilib Temur Ko‘ragonning qilichidan omon qolgan ikki do‘st hikoyati beriladi.

Ishq Talqini

Ishq mavzusining badiiy talqini – Navoiy ijodining o‘q ildizi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hatto bu masala navoiyshunosligimizda doktorlik tadqiqotlari miqyosida o‘rganildi (Eshonqulov, 2020, b. 310). Ma‘lumki, baqoga fanosiz erishmoq imkonsiz. Fano bo‘lmoq uchun esa o‘lmasdan burun o‘lmoq, ya‘ni nafsni o‘ldirmoq kerak. Nafsga qarshi jihodda eng kuchli qurol esa – ishqdir. Shu sababdan Navoiy ishq tavsifidagi bobda qalam otining jilovini qo‘yib yuboradi, ishqni maroq bilan kuylaydi.

Ishq arabchada “Jo’shqin muhabbat, haddan ortiq sevgi” ma’nosini ifodalaydi. Tasavvufda esa bu istilohga shunday ta’rif beriladi: 1. Sevgining so’ng martabasi. Sevgining insonni tom o’laroq o’z hukmi ostiga olmog’i, borliqning asli va yaratilish sababi. Odatda, so’fiylar sevgini *hub, muhabbat* kabi turli qismlarga ajratadilar. Eng ust darajaga ishqni qo’yadilar, ishqni sevgining eng mukammal shakli sanaydilar. 2. Sevganning sevgilisida o’zini yo’q etmog’i. Oshiqning yo’q, yolg’iz ma’shuqning bor bo’lmog’i, har narsaning undan iborat bo’lmoq holi. Sevgining darajalari manba’larda farqlicha ko’rsatiladi. Jumladan, Lisonuddin Ibnu-l-Xotibning “Ravzatu-t-ta’rif” asaridagi tasnif shunday: *iroda, muhabbat, havo, sahoba, tabattul, aloqa, bulug’, kalaf, shag’af, ishq, ulfat, karam, hullat, tatayyum, volyeh, tadalluh, istilom*. Sevgi bilan ishq orasidagi farq shudir: inson qalbidagi sevgiga hokim bo’lmog’i mumkin, ammo qalbdagi ishq insonni o’z hukmi ostiga kiritur, oshiqning irodasi qo’ldan ketur. Ibn Arabiyning tasnifi shunday: *hub, vud, ishq, havo*. Unga ko’ra, havo insonni sevgilisining quliga aylantirib, unga topinmog’ini ta’minlagani uchun eng kuchli sevgidir. Tasavvufda ishq yoquvchi xususiyati bilan otashga (*otashi ishq*), sarhush qiluvchi xususiyati bilan sharobga (*mayi ishq, bodayi ishq, sharobi ishq*) o’xshatilur (Uludağ, 2016, b. 48-49).

Navoiy ishq bobini “endi hayot boshlanib, inson vujudini ruh mayi bilan mast qilganlarida, uning tuproqdan iborat jismini hikmat qo’li bilan xuddi Eram bog’iga o’xshatib tuzdilar” deya boshlaydi:

*Odami xokiyni chu subhi alast
Ayladilar ruh mayi birla mast.
Hikmat iligi bila tufrog’ini,
Tuzdilar andoqki Eram bog’ini.*

Muallif vujud bog’ini Eram bog’iga qiyoslar ekan istiora yo’li bilan uning batafsil ta’rifini keltiradi. “Lekin dilni tortadigan narsa uning husni emas, elning sabr-toqatini olgan ham bu jamol emas. Ishq bulbuli o’z dostonini kuylay boshlaganda tomosha qilish uchun bu boqqa kirdi. Uning nazari gulga tushishi bilan zor bo’lib, shavq o’tidan joniga xabar yetdi. Gul shoxiga o’ltirib, joy tanladi; undagi otashin (qizil) gullar uning joniga o’t yoqa boshlashdi. Jonining ichi ishq o’tidan o’rtanib, g’am shu’lasidan ko’ngliga iztirob tushdi. Ishq uning sabru qarorini talon-toroj etdi, gul esa unga firib bera boshladi. Gul unga jilva qila boshlagach, endi unda sabr qilish imkoni qolmadi. Kuyib-yonib, u shunday qichqiriq soldiki, buning o’tidan chamanning ichi qizib ketdi”, - deydi ijodkor:

*Bulbuli ishq o’ldi chu dastonsaro,
Kirdi tamoshoga bu bo’ston aro.
Chun nazari gulga tushub zor o’lub,
Shavq o’tidin joni xabardor o’lub.
Maskan uchun bo’ldi chu gulbun nishin,
Joniga o’t yoqti guli otashin,
Joni aro ishq o’tidin tushti tob,
Ko’nglida g’am shu’lasidin iztirob.*

Navoiyning bu xususdagi qarashlaridan so’ng xulosa qilish mumkinki, ishq juda qadimiy bo’lib, u inson vujudiga Haq taolo ruh kirgizganidan boshlaboq mehmon bo’lgan. Qolaversa, ijodkor ishqning yuqorida tasavvufiy izohida keltirganimiz barcha jihatlarining badiiy talqinini berib o’tadi.

Ishq xususidagi fikrlarga fano ko’chasida boqiy turgan, ko’ngli ishq sirlarining xazinasi, gaplari ishqning yomg’ir o’rniga gavhar yog’diradigan bulutlarini eslatuvchi, tabiati ishq o’ti bilan yo’g’rilgan, “ishq” so’zining harflari peshonasiga yozib qo’yilgan, zamon faxri – Shayxi Iroqiy haqida hikoyat beriladi va unda haqiqiy ishqning pok bo’lishi, har qanday nopoklikdan yiroqligi isbotlanadi.

Rostlik Talqini

Rostlik ham Haq oshiqlarining sifatlaridan biridir. Navoiy bu sifatga alohida to’xtalar ekan, “yo’l qancha to’g’ri bo’lsa, maqsad shuncha yaqin, yo’l egri bo’lsa, maqsad uzoqlashganiga ajablanish o’rinsiz. Nay to’g’ri bo’lgani uchun so’fiylar uni yaxshi ko’rishadi; chang to’g’ri bo’lmagani uchun qulog’i buraladi”, - deydi:

*Yo’l necha tuz, yo’lchig’a maqsad qarib,
Xamlig’idin tushsa yiroq yo’q ajib.
Nay tuz uchun istar ani ahli hol,
Chun tuz emas, egri ko’rar go’shmol.*

Ilm Talqini

Haq taolo sifatlaridan biri “Aliym” bo‘lib, u “har bir narsani biluvchi, bo‘lgan va bo‘ladigan, avvalgi va oxirgi, zohir va botin narsalarning barchasini biluvchi” demakdir. Bu sifatni o‘zida jo qilgan solik olimdir, orifdir. *Ilm* tasavvufiy ma’nosi lug‘atlarda shunday izohlanadi: “Ilm – Ma’rifat, irfon, nafsini bilmoq, solikning nafsini tanimog‘i. “Nafsini bilgan Robbini bilur”.

Xulosa

Ilm kitoblardan, kishilarning og‘zidan, so‘zdan emas, balki hol bilan va Haqda foniy-boqiy bo‘lganlardan o‘rganilur”. Haqiqatdan, Navoiy yuksak sifatlar ta’rifi uchun keltirgan aksariyat hikoyatlarida shayxlar, hakimlar, avliyolar, ba’zida payg‘ambarlar obrazlari ishtirok etadi. Bu mazkur qahramonlar fano ummonidan baqo ganjini topganligini anglatadi. Ibn Arabiy “Ta’vilot”da “...bir kishilarki ularni tijorat ham, oldisotdi ham Allohning zikridan, namozni to‘kis ado etishdan va zakot berishdan chalg‘ita olmas” oyatidagi “namozni to‘kis ado etishdan” qismini “fano maqomida shuhud namozini qilmoqdan” deb, “zakot berishdan” qismini esa “baqo holida boshqalarni irshod etmoq va kamolga yetkazmoq zakotini bermoqdan chalg‘ita olmas” deya ta’vil qiladi (Muhyiddin Ibn Arabi, 2017, b. 70). Allomaning bu ta’vili Navoiy dostonlaridagi soliklar tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan hudhud kabi barcha yo‘lboshlovchilar, shayxlar, hakimlar, pirlarning baqo maqomida bo‘lganliklari, ularning harakat va holatlari, gap-so‘zlarida baqo talqini ketayotgani haqida xulosa qilishga imkon beradi. Hikoyalarning boshqa qahramonlari hamda o‘quvchi ana shu obrazlardan fano va baqoning mohiyatini anglashi mumkin. Jumladan, ilm tavsifi uchun keltirilgan hikoyatda ham Imom Faxr Roziy obrazi ishtirok etadi. Imom sulton Muhammad Xorazmshoh bilan hammomda uchrashib qoladi va imomning so‘zi bilan sulton takabburlikdan voz kechadi.

Navoiyga ko‘ra, ilm qiyomatda ham kishiga ko‘p manfaat yetkazadi. Mahshar kuni shohu gado teng bo‘ladi, ammo ilmlilar ko‘p foyda topadi. Shuning uchun muallif o‘ziga ham ilm va amal birligini tilaydi:

*Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o‘ldi, amal aylagil.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, Hazrat Navoiyning dostonlarida baqoga yetmoqning metodologiyasi, usuli ramziy-majoziy, allegorik yo‘lda atroflicha yoritilganini va uning talqinlari Sharqning buyuk nazariyotchi mutasavviflarining qarashlari bilan baqamti ekanini ta’kidlash lozim.

Hakem Değerlendirmesi: Dış bağımsız.

Çıkar Çatışması: Yazar, çıkar çatışması olmadığını beyan etmiştir.

Finansal Destek: Yazar, bu çalışma için finansal destek almadığını beyan etmiştir.

Peer-review: Externally peer-reviewed.

Conflict of Interest: The author have no conflicts of interest to declare.

Financial Disclosure: The author declared that this study has received no financial support.

Adabiyotlar/Kaynaklar/ References

- Alisher Navoiy (2016). *Qomusiy lug‘at* (Sh. Sirojiddinov, Mas‘ul Muxarrir). Sharq. (In Uzbek)
- Cebecioğlu, E. (2009). *Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü*. Ağaç Kitabevi Yayınları.
- Cürcânî, S. Ş. (2021). *Ta‘rifât tasavvuf istilahları* (A. M. Tolun, Çev.). Litera Yayıncılık. (Eserin orijinali 1845‘te yayımlandı)
- Eshonqulov, H. P. (2020). *Alisher Navoiy g‘azaliyotidagi ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili: “Xazoyin ul-maoniy” misolida* [Chop etilmagan doktorantura dissertatsiyasi]. Buxoro Universitet. (In Uzbek)
- Haqqul, I. (2021). *Alisher Navoiy taxalluslarining ma‘no qirralari haqida*. Tafakkur. (In Uzbek)
- İbn Fûrek (2014). *Tasavvuf Istilahları: el-İbâne an Turuki‘l-Kâsîdîn* (A. Yıldırım & A. Aslan, Çev.). Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı Yayınları.
- Kuşeyri, A. (1991). *Tasavvuf ilmine dair: Kuşeyri risalesi* (S. Uludağ, haz.). Dergâh Yayınları.
- Muhyiddin İbn Arabi (2017). *Tefsir-i kebir: te‘vilât* (Cilt II). (V. İnce, Çev.). Kitsan Yayınları.
- Muhyiddin İbnü‘l-Arabî (2017). *Fusûsu‘l-hikem* (A. A. Konuk, Çev.). Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı Yayınları.
- Navoiy Alisher (2012). *To‘la asarlar to‘plami* (Tom 1-10). G‘afur G‘ulom Nomidagi Nashriyot-Matbaa İjodiy Uyi. (In Uzbek)
- Uludağ, S. (2016). *Tasavvuf terimleri sözlüğü*. Kabcacı Yayıncılık.

Soʻz va Sozning Uygʻunligi

Söz ve Sazın Uyumu

Harmony of Words and Music

Izzat MATYAKUBOV 

Atatürk Üniversitesi, Türk Müsiki Devlet
Konservatuarı, Müzikoloji Bölümü, Erzurum,
Türkiye

Atatürk University, Turkish Music State
Conservatory, Department of Musicology,
Erzurum, Türkiye



Geliş Tarihi/Received 05.04.2024
Kabul Tarihi/Accepted 24.05.2024
Yayın Tarihi/Publication Date 30.05.2024

Sorumlu Yazar/Corresponding author:
Izzat Matyakubova
E-mail: izzat-83@mail.ru

Atif: Matyakubov, I. (2024). Soʻz va
sozning uygʻunligi. *Comparative Turkish
Dialects and Literatures*, (5), 17-25.

Cite this article: Matyakubov, I. (2024).
Harmony of words and music.
*Comparative Turkish Dialects and
Literatures*, (5), 17-25.



Content of this journal is licensed under a
Creative Commons Attribution-
NonCommercial-NoDerivatives 4.0
International License.

ANNOTATSIYA

Soʻzning kuchi va qudrati insoniyatga, tirik mavjudotga qanday taʼsir qilsa, sozning kuchi va qudrati ham undan kam taʼsir etmaydi. Binobarin soʻz va soz uygʻunlikda ijro qilinsa nafaqat insoniyat, balki butun nabodot olami bundan bahramand boʻladi. Dunyo olimlari buni barcha jihatlarini oʻlchab tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar kelajakda oʻzining sermahsul natijalarini, turli yangi sohalarni kashf etilishini taqozo etgan. Ushbu cholgʻu va ogʻzaki ijro turkiylarning epik anʼanalari bilan birga bugungi kungacha saqlanib qolgan va ijtimoiy va madaniy oʻzgarishlarni oʻzida mujassam etgan Xuddi oʻsha payt har bir dinning kirib kelishi, uning insonlar ongiga taʼsir qilishi, shakllanishi, omma oldiga chiqishi va diniy tadbirlar oʻtkazilishi hamda shu singari jihatlar aynan soz va soʻz uygʻunligida ijro etilgan va ijro etilib kelinmoqda. Otashparastlik, Budda, Xristiyan va Islom kabi dinlarning har jabxasida soʻz va soz uygʻunligi ijrosini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari insoniyat tarixidagi maishiy hayotida soʻz va soz uygʻunligi ijrosi doimo faol rol oʻynab kelgan. Insonning tugʻilishidan to vafot etguniga qadar boʻladigan marosimlar, anʼanalari, maʼnaviy-maʼrifiy, taʼlimiy-tarbiyaviy ishlar shular jumlasidandir. Maqolamizda aynan shu va boshqa tadqiq qilingan dolzarb masalalar haqida soʻz yuritiladi.

Kalit Soʻzlar: Nazm va navo, zikr va jaxr, doston, uygʻunlik

Öz

Sözün gücü ve kudreti insana ve diğer canlılara ne kadar tesir ediyorsa sazın gücü ve kudreti de o kadar tesir etmektedir. Söz ve saz birlikte icra edildiğinde hem insan hem bitkiler aleminin bundan faydalanacağı bilinmektedir. Bu mevzu bütün cihetleriyle birlikte bilimsel incelemelere konu olmaktadır. Bu inceleme sonuçları gelecekte farklı mevzuların keşfine kapı aralayacaktır. Bahse konu olan bu sazlı ve sözlü icra, Türkler de destancılık geleneği ile beraber günümüze kadar ulaşmış, toplumsal, kültürel değişimleri bünyesinde barındırmıştır. Aynı zamanda her bir dinin insanlar tarafından kabul edilişi, bilinçaltına tesiri ve bilinçaltında şekillenışı, değişik ritüeller biçiminde toplum içinde yaşatılması ve benzeri cihetler eskiden beri sazlı ve sözlü icralara da yansımıştır. Ateşperestlik, Budizm, Hristiyanlık, İslam vb. dinlerin belli sahalarında sazlı ve sözlü icra uyumunu görmek mümkündür. Bununla birlikte insanlık tarihi boyunca saz ve söze dayalı icra uyumu daima etkin bir rol oynamıştır. Bu bağlamda insanın doğumundan ölümüne kadar cereyan eden merasimler, gelenekler, manevî, terbiyevî ve eğitimsel faaliyetleri hatırlatmak yeterlidir. Makalede bu şekilde söz ve saz uyumu ve buna bağlı hususlar üzerinde durulmuştur.

Anahtar Kelimeler: Nazım ve ahenk, zikir ve cehr, destan, uyumluluk

ABSTRACT

As much as the power and power of the word affects human beings and other living creatures, the power and power of the saz affects them as much. It is known that when the word and the instrument are performed together, both human beings and the plant world will benefit from it. This subject is subject to scientific analyses with all its aspects. The results of these analyses will open the door to the discovery of different subjects in the future. It is possible to see the harmony of instrumental and oral

performances in certain areas of religions such as Atheism, Buddhism, Christianity, Islam, etc. This instrumental and oral performance has reached to the present day with the epic tradition in the Turks and has embodied social and cultural changes. This instrumental and oral performance has reached to the present day with the epic tradition in the Turks and has embodied social and cultural changes. At the same time, the acceptance of each religion by people, its influence on the subconscious and its shaping in the subconscious, its survival in society in the form of different rituals and similar aspects have been reflected in instrumental and oral performances since ancient times. However, throughout human history, the harmony of instrumental and verbal performance has always played an active role. In this context, it is enough to remind the ceremonies, traditions, spiritual, educational and educational activities that take place from birth to death. In this way, the article focuses on the harmony of word and instrument and related issues.

Keywords: Verse and harmony, dhikr and cehr, epic, harmony

Kirish

“Tarix - millat ko‘zgidir” bu fikr bejizga aytilmagan. Chunki, tarix orqali ajdodlarimiz kim ekanligi, qahramonliklari, urf-odatlarini, an‘analari, ma‘naviyati, taraqqiyot jarayoni va kelajagi haqidagi ma‘lumotga ega bo‘lamiz. “So‘z va soz uyg‘unligi ijrosining chuqur ildizlari tarixi”ni o‘rganish orqali esa so‘z san‘ati, milliy sozanda va xonandalikni, ota-bobolarimizning ulkan musiqiy merosini teran anglab yetishimizga zamin yaratadi.

Inson ovozi vositasida yaralgan va aynan ovozdagi ijro etishga mo‘ljallangan san‘at namunalari paydo bo‘lishi cholg‘u musiqasiga nisbatan ancha qadimiy bo‘lib tarixi ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqalarida, xususan, Markaziy Osiyoda joylashgan ko‘hna davrlarda vujudga kelgan professional musiqa san‘atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo‘llanilgan. Ijro shaklining oddiy ko‘rinishlari mahalliy mehnatkash aholi orasida folklor musiqasi negizida, kasbiy tus olgani esa saroyning madaniy, ko‘ngilochar hamda joriy etilgan zardushtiylik marosimlarida ancha erta paydo bo‘lgan (Malikova, 2023, b. 21-27).

Dinlar va So‘z- Sozning Uyg‘unligi

Zamonlar o‘tgani sayin “Otashparastlik” dini bora-bora rivojlanib, madaniylashib boshqa dinlarga o‘rnak ko‘rsata boshlaydi va natijada “Zardushtiylik” dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” dunyoga keladi. Ularda jam bo‘lib kuylash, jamoa bo‘lib olov atrofida zikr tushish ulug‘langan, turli marosimlarda yakka va jamoa bo‘lib kuylanadigan o‘ziga xos qo‘shiqlar, mavsumiy qo‘shiqlar bo‘lgan. Professor P. Klark va O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professori A.X. Xakimovalarning “Zorostrizm” nomli kitobida aytilishicha: Gat madhiyalari orqali o‘sha davrda musiqa yordamida insonlarga yaxshilik urug‘i sochilgan va keyingi avlodlarga yetkazish uchun ustoz - shogird an‘analaridan foydalanilgan. Nimaga aynan musiqa? Kitobning quyidagi jumladan javob izlaymiz: “Ushbu Gatlar diniy matnlar asosida tuzilgan 17 madhiyadan iborat diniy madhiyalar to‘plami. Musiqiy kuylash jarayonida matnlardagi harflarning o‘rni juda katta. Aynan matndagi harflar tovushlarni qanday og‘izdan chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos tizim yaratilgan. Ulardan misol: Unli harflar tovush cho‘zuvchi harflar hisoblanilgan ya‘ni a, o, u, i, e va hokazo. Undosh harflar esa t, d, p, k, b va hokazo tovush kesuvchi, boshqacha qilib aytganda tovush cho‘zilmaydigan harflar hisoblangan. Bundan tashqari tovushni yuqoriga chiqaruvchi va pastga tushiruvchi, dinamik ahamiyatga ega va boshqa bir qator vazifalarni bajaruvchi harflar ham mavjud bo‘lgan”. Bulardan tashqari har bir bo‘g‘inning ritmik tuzilishi musiqaviy ohangning o‘lchovlariga ta‘sir qilgan. Zamonamiz tili bilan aytganda barmoq vaznga to‘g‘ri keladi (Klark & Hakimova, 2010, b. 10-18).

Keyinchalik paydo bo‘lgan Budda dini va uning yo‘nalishlarida ham “Kirtan”, “Arati” nomli yakka so‘z aytuvchi va jamoa bo‘lib qaytariladigan ibodat turkumi mavjud. Kirtan va Aratilar ilohiy duolari, aytimlarni, o‘ziga xos ohangni saqlagan holda qiroat bilan kuylanadi. Jamoa esa uning so‘zlarini aynan yakka ijrochi ijro etganide takrorlaydi. Jamoa bo‘lib qaytarib mutolaa qilish “Bxajani” deyiladi. Buddaviylikda ham jamoa bo‘lib aytiladigan o‘ziga xos marosim qo‘shiqlari, mavsumiy qo‘shiqlar mavjud. Xristian dinining “Pravoslav” va “Katolik” oqimlaridagi diniy marosimlarida ham saroy qo‘shiqlari, diniy va xalq qo‘shiqlarini kuylash jarayonini kuzatish mumkin (Matyakubov, 2018, b. 12).

Islom dinida ham Farz namozlari imomga iqtido qilingan (ergashgan) holatda birgalikda jamoa bo‘lib o‘qiladi va qiroat qilinadi. Jamoa bo‘lib ruku, sajdaga bosh qo‘yiladi va “Fotixa surasi” dan so‘ng “Omin” so‘zini jamoa bo‘lib aytish, takbir aytish va shu kabi Allohga zikr keltirish, jamoa bo‘lib so‘zlarni takrorlash jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Qolaversa, Juma, Hayit namozlarida “Xutba” o‘qish jarayonida imomning duolaridan so‘ng “Tashaxud” duosi ham jamoa bo‘lib qaytariladi. “Mavlud”, “Mushkil kushod” kabi diniy marosimlarda ham yakka va jamoa bo‘lib so‘z aytish, qiroat qilish kabi jarayonlarni kuzatishimiz mumkin (Anvar Axmad, 2018, s. 40-48).

Barcha dinlarda yakka va jamoa bo'lib suralar o'qish, jamoa bo'lib qiroat qilish, diniy qo'shiqlarni jamoa bo'lib aytish mavjuddir. Ushbu holatlar qiro'at deya atalsada, qo'shiqchilikdagi barcha unsurlar bunda mavjuddir. Bulardan tashqari, diniy qo'shiq (Tasavvuf shoirlar qalamiga mansub) va rivoyatomuz ashulalardan qalandarlar ijrosida "Jaxr", "Zikr" nomli aytilmalar ham mavjudki, ushbu aytilmalarda sarbon qalandar yoki eshon xofiz ikki-uch jumlani xassasida usul (ritmik temp) berib aytadi va qolgan qalandarlar uning ketidan ergashib qaytaradilar. Zikr - o'zida she'r, so'z, musiqa, usul va raqsnı birlashtiradi. Yassaviya, Kubraviya va ayniqsa, Chashtiya tariqatlarida zikr marosimini qo'shiq va harakat bilan ijro etish nisbatan keng tarqalgan. Maxdumi A'zamning Zikr borasidagi fikriga ko'ra, xojalar zikrda azimat bo'lidan borgan bo'lsalar ham, ulardan ba'ziları zamon taqozosiga qarab va qavmlarning iste'dodini nazarda tutib jaxr qilganlar. Uning yozishicha: "**Xech aybi nest, bag'oyat ho'bast, tariyqi anbiyoi motaqaddam nez hamin budast**" (Buning hech aybi yo'q, bag'oyat yaxshidir, o'tgan anbiyolarning yo'li ham shunday bo'lgan). Podshohliklar davrlarida ham saroyning qo'shiqchilar jamoasi, saroy sozandalar jamoasi bo'lgan. Dushmanni sarosimaga solish maqsadida jang oldidan dovul, karnay chaldirilganligi tarixiy solnomalarda yozib qoldirilgan. Urushlarda dushmanni sarosimaga solish maqsadida "Ur ho ur", "Olg'a" kabi so'zlar qo'llanilgan-ki, ular nafaqat dushmanni sarosimaga solgan, balki jangchi ko'ngliga tasalli bergan, kuchiga kuch qo'shgan, ruhlantirgan, g'alabaga undagan. Qadim zamonlarda podshoh, xon farmonlarini og'zaki holda xalqqa yetkazish maqsadida baland va chiroyli ovozi, nutqi ravon kishilarni tayyorlashgan va saroyga ishga taklif qilishgan. Chunki, podshoh yohud xon farmonini hamma eshitishi va so'zlarini to'liq anglashi kerak edi. Xalq orasida jamoa bo'lib folklor - etnogafik qo'shiqlar aytish rivojlangan. Bu qo'shiqlar marosim qo'shiqlari, mavsumiy qo'shiqlar va boshqa shunga o'xshash qo'shiqlar tarzida shakllangan. Tarixga nazar solsak, bunday holatni barcha xalqlarda kuzatishimiz mumkin. Qolaversa, har bir mamlakatning ob-havosi, joylashgan joyi, turmush tarzi, tabiati, so'z boyligi, ma'naviyati, madaniyatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. So'z va soz orqali insonlarni yaxshilikka chorlashgan, birdamlik, ahllik, do'stlik kabi tushunchalar tarannum etilgan. Inson hayotida ovunchoq va madadkor, betimsol ruhiy quvvat bo'luvchi san'atlardan biri aynan so'z va soz san'atidir (Matyakubov, 2018, b. 13-15).

Tibbiyot ilmining sultoni, alloma Abu Ali Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid kitoblarida so'z va soz ilmida ham tadqiqotlar olib borgan. Qolaversa Ibn Sinoning o'zi ham musiqa sozlarida chalishni bilgan. Musiqadagi tonlar, nag'malar va hatto usullarning ham inson organizmiga ta'siri, uni davolash va aks ta'sir ko'rsatishi mumkinligini o'z risolalarida yozib qoldirgan.

*Beshik insonni jismoniy kamolotga yetkazsa, Ona allasi uni ma'naviy kamolotga yetkazadi **Abu Ali Ibn Sino**.* Sharq mutafakkirlari va Yevropa olimlarining musiqaga oid risolalari, ilmiy tadqiqodlari va izlanishlari bizning davrimizgacha yetib kelgan (Matyakubov, 2018, b. 12-14).

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino allaning xususiyati borasida bir necha asrlar avval shunday yozgan edilar: "... bolaning (mijozini) qiziqishini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri — bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan ohang (musiq) yordamida go'zal va ilohiy so'zlar ila allalashdir. Shu ikkisini qabul qilishiga qarab, bolada badantarbiya, so'z va sozga bo'lgan iste'dod hosil qilinadi" (shifo.uz/article/alla-haqida).

Qadimdan so'z va soz uyg'unligi ijrosi har jabhada o'ziga xos shaklda rivojlanib bordi. Insonlarning bir-biri bilan aloqa qilishida, maishiy hayotida, turli tadbir va marosimlarni o'tkazishda va eng asosiysi odamzot sifatida boshqa jonzotlardan ajralib turish uchun ham so'z va soz uyg'unligining ijrosidan doimiy foydalanib kelmoqda. Shu o'rinda o'zbek baxshilarining piri hisoblanmish Mulla G'oyibning ushbu misralariga e'tiborimizni qaratamiz:

*Soz bilan suhbatni yolg'on demanglar,
Odam ato paydo bo'lg'anda bordur.
Hobil, Qobil onasining qorninda,
Alar ham dunyog'a galganda bordur.*

*Mullalar jam bo'lib topmadi dalil,
Man sanga sig'indim ya Rabbim Jalil.
Ismoyil payg'ambar, Ibrohim Xalil,
Makka Madinani qurg'anda bordur.*

*Bu dunyog'a kimki galdi sarishta,
Odam og'li har qaysisi har ishda.
Xorud, Morud odli ikki farishta,
Bobilning chohina tushganda bordur*

*Igna uchun Iso osmonda qoldi,
Iskandar Zulqarnayn dunyoni oldi.*

*Musoning hassasi ajdaho bo'ldi,
Nasimiyning po'stin so'yg'anda bordur.*

*Dog'larning boshinnan getmas dumoni,
Bir gun bo'lar yaratganning farmoni.
Ma'diy kelib olur yoxti jahonni,
Ali yoqasinnan tutganda bordur.*

*Shaytonni quvdilar jannat uyinnan,
Har kim topar o'z fe'linnan, ho'yinnan.
Xudo o'zing saqla xazon suvinnan,
Nuhni gamasina dushanda bordur.*

*Mullalar jam bo'lib ketdilar hama,
Xazon demakni ma'nosi nima?
Podshoh bo'lib o'tdi shohi Jam-jama,
Dunyoning lazzatin totganda bordur.*

*Muhammad payg'ambar din yo'lin ochdi,
Bilol azon aytdi kofirlar qochdi.
Abu Bakr, Umar, Usman yetishdi,
Ali zulfiqorin cholg'onda bordur.*

*Hazrati Dovudning qirq o'g'li bo'ldi,
Manmanlik ayladi, barchasi o'ldi.
Qirq o'g'il o'rniga bir o'g'il ko'rdi,
Dovudning qirq o'g'li o'lganda bordur.*

*Mullo G'oyib aytar, Xizirdur pirim,
Pirim Shoyimardon Ali dastgirim.
Sulton Suyun podshoh Mir Alisherim,
Dunyoning to'zini tutganda bordur (Matyoqubov, 2024, b. 65).*

Ushbu she'rdan shuni anglash mumkinki, soz va so'z uyg'unligi ijrosining qadimiyligi, uning kuchi, uning qudrati har bir davr va har bir zamonda o'z ahamiyatiga ega bo'lgan, bo'lmoqda va bundan keyin ham o'z ta'sir kuchini yo'qotmaydi.

Folklor va So'z - Sozning Uyg'unligi

Har bir xalqning o'zining madaniyati, milliy san'ati va boy badiiy an'analari ajdodlardan meros qolgan moddiy va ma'naviy boyliklar bilan belgilanadi. Shunday qadriyatlardan biri so'z va soz san'atidir. So'z san'ati - bu tovushlarning uyg'unligi bilan, soz san'ati esa musiqa - ovoz bilan paydo bo'lgan. Asrlar, ming yillar davomida so'z san'ati rivojlangan bo'lsa, hali cholg'u asboblari yaratilmagan davrlardayoq ovoz san'ati mavjud bo'lgan. Ana undan keyin inson ovoziga, zamonaviy til bilan aytganda inson tembriga yaqinlashtirilgan cholg'u asboblari ixtiro qilina boshlangan ("Musiqa cholg'u asboblari", 2019).

So'z va soz bilan insonni har qanday holatdan yaxshilik, yorug'lik, musaffolik, ko'ngilchanlik va boshqa ruhiy holatlarga keltirish mumkin. Hatto ruhiy kasalliklarni so'z va soz san'ati bilan davolash mumkinligini qadimgi olimlar ta'kidlab o'tishgan. *Aql ketar bo'lsa har tandan yiroq, Jinnilik asari yuz bergay shu choq. Go'zallar yuziga tiksin ko'zini, Nay-u ud, changga ham tutsin u quloq. Yusuf At Tabib Al Haraviy* (Matyoqubov, 2009, b. 7).

Arab tili bilan turk tilining uzviy aloqadorligiga doir yana bir misol: Islom dinida chaqaloq tug'ilganda uning qulog'iga azon aytilib, "Allohu Akbar, Muhammadur Rasululloh" deyiladi. Turkiy va bir qator boshqa xalqlardagi onaning o'z chaqalog'iga alla (e'tibor bering, "Alloh" so'ziga ohangdosh) aytishi uning o'z bolasiga o'ziga xos ta'limi va tarbiyasi, Allohni tanitishi, deyish mumkin. "Alla" so'zi ingliz tilida "lullaby [la'libay]" deyiladi. Ahamiyat bering: inglizchada "goodbye [gud'bay] xayr, yaxshi qoling, Xudo yor bo'lsin" so'zi asli "Good by (you) [Good bay yu] Xudo siz bilan" degan iboradan kelib chiqqan. Ya'ni, "lullaby" so'zi ham "Allah by you - Alloh sen bilan" iborasidan olingan (Atayev, 2024).

Ona allasi inson tugʻiliboq birinchi eshitishi mumkin boʻlgan qoʻshiqlardan biridir. Asrlar davomida sayqallanib kelayotgan alla qoʻshigʻi oddiygina ikki pardani bir-biriga bogʻlab kuylangan boʻlsada, uning ona yuragidagi dard, nola, shodlik, niyat, orzularini soʻz ifodasi orqali oʻz ichiga olgan. Oddiy ikki parda beshik, belanchagining borib kelishi ritmik holatidan olingan boʻlsa undagi sheʻriy misralar har bir onaning orzu-havasi, niyati, qalb tubidagi soʻzlaridir. Asrlar davomida allaga yaxshi niyatlar, orzu-havas, quvonch, shodlik, tilak soʻzlari qoʻshib kuylangan. Alla soʻzidagi har bir yaxshi tilak, orzu-havas goʻdak ulgʻaygach oʻz natijasini beradi degan ishonch bilan qiz yoki oʻgil farzand boʻlishidan qaʼtiy nazar, alla orqali sadoqat, mardlik va jasurlik, goʻzallik kabi nafis, olijanob tuygʻularni singdirishga harakat qilishgan. Alla soʻzining maʼnosi Alloh demakdir, ayollar oʻz kuylari orqali bolaga Buyuk Allohning nomini singdirib, ruhiy tarbiyalaydilar. Yaʼni, allaning asl shakli “Alloh” zikridir, buni har safar uyqudan oldin eshitgan goʻdak oʻz Robbini taniydi (Karimova, 2021, b. 91-98).

Shu oʻrinda alla qoʻshigʻining soʻzlaridan birini misol keltiramiz:

Jonim bolam, baxtim bolam alla-yo, alla

Koʻngildagi taxtim bolam alla-yo, alla

Hayotim ham borim oʻzing alla-yo, alla

Nomusim ham orim oʻzing alla-yo, alla

Boʻynimdagi tumorim alla-yo, alla

Dilimdagi xumorim alla-yo, alla

Tangrim bergan osmonim alla-yo, alla

Vatanimga posbonim alla-yo, alla.

Bunday misollarni juda koʻp keltirish va uzoq davom ettirish mumkin. Shubhasiz, ushbu “Alla”ning soʻzlarini eshitib ulgʻaygan farzandning toʻgʻri shakllanishi, uning oilasiga, Vataniqa mehri ortishi turgan gap.

Aytishlaricha, buyuk fransuz sarkardasi Napoleon Banopartning onasi sarkardani uyqudan uygʻotish uchun shunday soʻzlar bilan murojaat qilgan ekan: “Oʻgʻlim turing, sizni buyuk-buyuk ishlar kutmoqda” (sof.uz elektron gazetasi).

Yoki boʻlmasa, yaxudiy millatini olaylik, bu millat vakillari farzandlari nima ish qilsalar ham ularni koyimasdan “Sizdan buyuk inson chiqadi”, deya ruhlantirishar ekanlar. Yaponlarning farzand tarbiyasida taʼlim maskanini juda muqaddas bilishadi va har kun ertalabdan oʻquv dargohi oldida tiz choʻkib yaxshi oʻqib olim boʻlishligi uchun duo qilishar ekan. Yana bir ahamiyatli jihati, Yaponiya Davlat taʼlim tizimidagi fanlar ichida ona tili va musiqa fanlari birinchi oʻrinda turadi. Balki shuning uchun Yaponiya eng rivojlangan davlat sifatida tan olingan va aynan oʻz ona tili va musiqa bilan ulgʻaygan yosh avlod Yaponiyadek davlatni rivojlangan mamlakatlarning sarboni sifatida koʻrsatishiga olib kelgandir (Madraximov, 2000).

Farzand tarbiyasiga, uning toʻgʻri shakllanishiga, kelajakda uni toʻgʻri yoʻl tanlay olishi nihoyatda muhim. Ularga muntazam ravishda vatanparvarlik, rostgoʻylik, haqiqatparvarlik, mehribonlik, oilaparvarlik kabi hislatlarini singdirib borish kerak. Ushbu holat soʻz va soz sanʼati bilan sugʻoriladigan boʻlsa nur ustiga aʼlo nur boʻladi. Chunki, inson soʻz va soz sanʼatini qoʻllaganda ovozdagi mung yordamida eshituvchining yuragini zabt etish mumkin.

Soʻz ojizlik qilgan vaqtda, musiqa yordamga keladi. G.X.Andersen (snorovka.com web sayti).

Ushbu jumalalar, soʻz va soz uygʻunligi ijrosi boʻlmish qoʻshiq, ashula, maqom asarlarining ilohiy kuch ekanligini yana bir taʼkidlaydi. Qoʻshiq soʻzining maʼnosi qoʻshilmoq demakdir (“Qoʻshiq”, 2021).

Bunda soʻz va ohang qoʻshilishi, uygʻunlashishidan tashqari shoir, musiqachi va eshituvchini bir-biriga qoʻshmoq, yaʼni qoʻshiqchi tomonidan shu uchlikni bunday neʼmatdan bahramand qilmoqdan iborat. Qolaversa, qoʻshiqchining oʻzi ham bu neʼmatdan bahramand boʻlmogʻi aytiladi. Qoʻshiqchi - shoirning yurak dardlarini musiqa yordamida eshituvchining koʻngliga joylay olishi lozim. Qoʻshiqchining mohirligi, professionaligi eshituvchi uchun juda zarurdir. Har bir tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan soʻzni inson qalbiga yanada chuqurroq kirib borishida, soʻzning taʼsirchanligini yanada oshirishda qoʻshiq muhim rol oʻynaydi. Qoʻshiqdagi turli boʻrttirmalar, urgʻular, har-xil kayfiyat, talaffuzlar, choʻzimlar, dinamikalar, pardalarning baland yoki past kuylanishi yordamida eshituvchiga soʻzlarni shunday yetkazish mumkinki, yurakning tub-tubidagi dardlarni jumbushga keltira oladi. Qoʻshiq atamasi ikki xil feʼl maʼnosida qoʻllaniladi: keng maʼnoda aytim (vokal) asar: tor maʼnoda - qoʻshiq janri. Janrga xos tasnifiy belgilari - barmoq vaznidagi toʻrtliklarda kuylash, mazmunan turlicha: hajviy, hazilomuz va hokazo. Dastlab qoʻshiqlar kvinta - seksta, oktava oraligʻi bilan cheklangan. Ohanglarida soʻzdosh va kuychan xususiyatlarining payvastaligi namoyon boʻladi. Bularga: terma, yalla, lapar, qarsak va hokazolar kiradi. Lirik qoʻshiq bu janrning muhim

turidir. Unda asosan ishq, (yorga, elga, Vatanga va hokazo) muxabbat mavzulari tarannum etiladi. Ashula qo'shiqning rivojlangan aytim turi bo'lib, ovoz ko'lamining nisbatan kengligi, kuylarning ohangdorligi, ritmlarning serqirra va murakkabligiga ega. Ashulada ham barmoq, ham aruz vaznli she'rlar, g'azallar qo'llaniladi. Aksar hollarda ishqiy-lirik kayfiyat yetakchilik qiladi, falsafiy va didaktik mavzular bayon etiladi. Ashula janri musiqa ijodi va ustozona musiqa qatlamlari orasida o'ziga xos bog'lovchi "ko'prik"dir. Rivojlangan ashula, Katta ashula — ustozona musiqa namunasidir (Ibragimov, 2006, b. 96).

Ashula va qo'shiq o'rtasidagi farqlarning yana biri, shartli ravishda tuzilgan olti bo'lakdan tashkil topadi. Bularga daromad, miyonxat, dunasra, o'rta avj, katta avj, furovard kiradi. Qo'shiqda esa kuplet, naqorat va avj kuzatiladi. Bularning hammasini yakkaxon shaklda ham, jamoa shaklida ham ijro etish mumkin.

Folklor janrining qadimiy yo'nalishlaridan biri bu dostonchilikdir. Dostonchilik qadim-qadimdan rivojlanib kelayotgan, og'izdan-og'izga, otadan-bolaga, ustozdan - shogirdga o'tib kelayotgan qadriyatdir. Dostonchi - ham qo'shiqchi, ham shoir, ham so'z ustasi, ham soz ustasi, ham aktyor, ham psixolog, ham yaxshi improvizator, ham yaxshi arator bo'lishi talab qilinadi. Bu janrni ilmiy o'rganib, tadqiqodlar olib borgan olimlarimiz, dostonchilik dastlab bir voqeani so'zlash keyinchalik kuylab berish bilan boshlanganligini ta'kidlashadi. *Maqom - soz etmak, suvora - so'z etmak, doston - voqelik*. Bola baxshi Qurbonnazar Abdullayevning ushbu fikrlarini so'zimiz isboti sifatida keltirib o'tamiz (Matyoqubov, 2009, b. 6).

Ustoz Otaxon baxshi ta'kidlasharicha, Xorazm baxshichilik san'atini xonandalik sohasidan ayro ko'rsatish mumkin emas, chunki bu ikki san'atning ildizi bir. Demak, yakka xonandalik san'atini vujudga kelishiga sababchi dostonchilik. Baxshi ya'ni ma'rifatparvar, ustoz xalqni ma'naviyatini o'stiradi, o'zining hikoyalari orqali o'z eshituvchilarini tarbiyalaydi. Keyinchalik she'riy janrlarning qonuniyati o'sib borishi bilan xonandalik san'ati rivojlangan.

Xorazm dostonchiligi va xonandalik san'ati bizgacha to'la yetib kelishiga sababchi inson Qurbonnazar Abdullaev haqida ustozdan so'raganimizda shunday javob berdi: "Bola baxshi men shogird bo'lib tushishimdan oldin bir marta ham dars berib ko'rmagan edi. Uyida xizmatlarini qilib biroz vaqt o'tgach, darsni nimadan boshlashni bilmay, ovozimni sozlab, ashula o'rgata boshladi, dostonlarning nasriy qismiga kelganida so'zlarning har birini tushunarli aytish, ayniqsa harflarni to'g'ri jaranglatishni o'rgatar edi. Ustozning uyiga ramazon oyida (to'y yo'q paytlari) Xivalik xonandalar yig'ilib, har birining so'zda, sozda, tartib-intizomdagi kamchiliklarini aytib, bu xatolarni qaytarilmasligini nazorat qilishar edi. El orasida yurgan san'atkorlar tanqidni to'g'ri qabul qilib, o'zlari ustida ishlar edilar va Xiva san'atkorlari orasida o'sish kuzatilar edi" (Matyakubov, 2009, b. 28-29).

Ustoz-shogird an'anasi haqida ko'p gapiramiz va shogird noboproq chiqsa ustozni aybdor qilamiz! Ustoz o'zining xulq-atvori, san'ati, muomalasi bilan shogirdlarga namuna bo'lishi kerak! San'atkorning korini o'rgatuvchi dastlab ustoz bo'lsa, korining sifatini oshiruvchilar uning yon atrofidagi sozandalari, san'atkor do'stlari, qarindoshlari va asosan eshituvchilari hamda muxlislaridir. Ustoz ming gapirgani bilan shogirdning boshi devorga urilmasa foydasi yo'q!

Xorazm eroniy maktabining yirik vakili Axmad baxshi Matnazar o'g'lining 1934 - yili qishloq klubida doston ijro qilganligini folklorshunoslar shunday ta'riflashadi: "Klub zaliga uch yuzdan ko'proq kishi joylashdi. Baxshi "Go'ro'g'li" dostonini boshladi u juda berilib tomoshabinni o'ziga jalb qildi-ki, shinavandalar har bir doston qahramoni obrazini qalbdan his qilib, doston ichiga sho'ng'ib uning mazmuni bilan nafas ola boshladi. Doston kulminatsiyasiga yetib unda Go'ro'g'li qirq yigiti va xalqiga qarab "Safarim bor Gurjiston maning bilan ketgan yursin" deb baxshi dutorini chalib zaldan tashqariga chiqishi bilan doston jarayonidagi tomoshabinlarning barchasi go'yoki Go'r o'g'lining o'g'li Avaxxonni qutqarish uchun janga otlanayotgan askarlar kabi u bilan tashqariga otilib chiqadi". Dostonlarning dramaturgiyasi, voqealar rivoji qanday ruhiyatda bo'lsa nomalari, ya'ni musiqalarining xarakteri ham shunga moslashadi. Qayg'uli-g'amgin bo'laklarda baxshilar ko'proq zorinji, nolish kabi nomalardan foydalanishadi. Jangu-jadal, qahramonlik, bahodirlik aks etgan bo'laklarida ilg'or, eshvoy kabi nomalarni ishlatishadi. Baxshilarning mohirligi va xalqni o'z ortidan ergashtirish to'g'risidagi bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Hatto xonlarning ham o'z shaxsiy baxshilari bo'lgan ekan. Misol uchun Muhammad Rahimxon Feruz soniyning Suyav ismli baxshisi bo'lgan. Ustoz Otaxon akaning ta'kidlashicha: "Har yili mart oyida Xiva shahrining Nurillaboyning bog'ida baxshi-xonandalarning ko'riktanlovi bo'lib, unda xalq xizmatida yurgan va ustoz fotihasidan so'ng el xizmatiga kamarbasta bo'lib turgan yosh xonandalar qatnashib o'z mahoratini namoyish etar ekan. Xonandalarni birma-bir eshitib xon o'z fikrini Suyav baxshiga aytar ekan, baxshi rozilik bildirsa xonandaga el-yurt xizmatida bo'lishga ruhsat berilar va aks holda bu xonanda yana o'z ustida ishlashi kerakligini aytib, xizmat qilishga izn berilmas ekan" (Matyakubov, 2009, b. 30-31).

Maqolada tarixiy hayotimizda oqindi suv va u bilan bog'liq atamalarning ifodalanishi, struktur qo'llanilishi xususida mulohazalar bildiriladi. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kanalizatsiya tizimi qadimgi davrlardan oqindi suvni chiqarib tashlaydigan quvur yo'llari va inshootlar bo'lib, ular obrez, hanik, tazar, toshnov (dashnov) kabi turli so'zlar bilan ifodalangan. Bu so'zlar yer osti, yomg'ir va ifloslangan suvlarni bir joyga yig'ish hamda chiqarib tashlash uchun shaharlarda quriladigan qurilma yoki inshoot nomini anglatgan. Oqova suv va tozalash tizimi tarixida qo'llanilgan bu so'zlar tadqiq obyekti sifatida olinib tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Suv, oqova suv, suv ilmi, oqindi, suvni tozalash

ÖZ

Makalede atık suyun tarihsel hayatımızdaki ifadesi, yapısal kullanımı ve bununla ilgili terimler yorumlanmaktadır. Halkımızın tarihine baktığımızda, kanalizasyon sisteminin eski çağlardan bu yana yaşam tarzlarında önemli bir rol oynadığını görebiliriz. Evlerimizden atık suyu uzaklaştıran boru hatları ve yapılar mevcut olup bunlar obrez, hanik, tazar, toshnov (dashnov) gibi farklı kelimelerle ifade edilmektedir. Bu kelimeler şehirlerde yeraltı, yağmur ve kirli suları toplayıp uzaklaştırmak için inşa edilen bir cihazın veya yapının adı anlamına geliyordu. Atıksu ve arıtma sisteminin tarihçesinde kullanılan bu kelimeler bir araştırma konusu olarak analiz edilmiştir.

Anahtar Kelimeler: Su, atık su, su bilimi, akıntı, su arıtma

ABSTRACT

The article comments on the expression and structural use of waste water and terms related to it in our historical life. If we look at the history of our people, we can see that the sewage system has played an important role in their lifestyle since ancient times. There are pipelines and structures that remove waste water from our houses, and they are expressed by different words, such as obrez, hanik, tazar, tashnov (dashnov). These words meant the name of a device or structure built in cities to collect and remove underground, rain and polluted water. These words used in the history of wastewater and treatment system were taken and analyzed as an object of research.

Keywords: Water, wastewater, water science, discharge, water treatment

Kirish

Suv tabiatning eng noyob, nodir hamda bebaho boyliklaridan biri hisoblanadi. U butun tirik jonot, inson, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun hayot, yashash manbaidir. Suv haqida so'z borganda, suvning tabiatdagi eng bebaho xazina ekanligi, tabiat mo'jizasi va kashfiyoti ekanligini eslash lozimdir. Suv jamiki mavjudotning tanasidagi joni-yu ular tomiridagi qoni, hayotning borlig'i, qolaversa, tabiat saxiylik bilan ato etgan bitmas tuganmas boylik hisoblanadi. Nonning ushug'i ham non bo'lganidek, suvning tomchisi ham suvdur. Mashhur tabiatshunos olim, akademik V. I. Vernadskiy: "Tabiiy suv insonning butun hayotini yaratadi va qamrab oladi. Uning jamiyatda, turmushda, insonning mavjudligida tutgan o'rnini shu darajada aniqlab beradigan birorta boshqa tabiiy jism bo'lmasa kerak (Hasanov & Rashidov, 1987, b. 45) deb yozgan edi.

Insonning eng yaqin do'sti, hamrohi, ba'zan nihoyatda dahshatli dushmani suv haqida biz ko'pincha o'ylab ham o'tirmaymiz. O'z xohishimizga ko'ra foydalanaveramiz. Ammo suvning qadriga yetish, uni saqlash haqida o'ylab ham ko'rmaymiz. Chunki biz bularga ko'nikib qolganmiz. Shu o'rinda ichimlik suvining har bir tomchisini avaylash, qadriga yetish haqidagi Yapon yozuvchisi Xiroshi Nomaning "Mabodo, kelgusida yerda hayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, balki suv yetishmovchiligidan sodir bo'ladi" (Rasulov va b., 2003, b. 51) degan fikrlarini eslash joizga o'xshaydi.

Suvning qishloq xo'jaligi va sanoatdagi ahamiyatini quyidagi dalillar ham isbotlaydi. Masalan, bug'doydan olinadigan hosilning har bir tonnasi uchun 1500 tonna, 1 tonna g'isht tayyorlash uchun 1-2 tonna, 1 tonna ko'mir qazib olish uchun 3 tonna, 1 tonna po'lat yoki qog'oz ishlab chiqarish uchun esa 250-300 tonna suv zarur bo'ladi. 1 tonna sinetik tola ishlab chiqarish vaqtida esa 4000 tonnagacha suv talab etiladi. 1 tonna ip gazlama tayyorlash uchun 10 tonna suv sarflansa, ba'zi bir sintetik tolalardan 1 tonna gazlama tayyorlash uchun 3000 tonna suv talab etiladi (Rasulov va b., 2003, b. 51).

Suv hayotga tenglashtirilgan millatimizda daryolar, buloqlar haqidagi bilimlar asrlar davomida xalq xotirasida saqlanib kelmoqda (Hikmatov & Aytbayev, 2006, b. 10).

O'rta Osiyolik olimlarning suv ilmi – gidrologiyaning dunyo miqyosida qadimdan to hozirgi kunga qadar rivojlanishida va alohida fan sifatida e'tirof etilishida munosib hissalarini borligini geograf olimlar ta'kidlaydilar. Tadqiqotchi F. Hikmatov O'rta Osiyoda suv ilmiga oid ilk fikrlarning shakllanishi va rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lgan:

1. Qadimdan yangi eraning IX asrigacha bo'lgan davr.
2. IX asrdan XIII asr boshlarigacha, ya'ni mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davr – Sharq Uyg'onish davri.
3. XIV asrning o'rtalaridan XVI asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr – temuriylar davri.
4. XVI asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr.
5. XX asr boshlarigacha bo'lgan davr.
6. Sho'rolar davri.
7. Mustaqillik davri (Hikmatov va Aytbayev, 2006, b. 8).

Suv ilmida foydalanilgan "suv yo'llari" qomusiy olimlar tomonidan keng qo'llangan tushuncha bo'lgan. Ahmad al-Farg'oniy suv o'lchash inshooti – "Nilometr" dan amalda foydalanish haqidagi jadvallar, ko'rsatmalar, tavsiyanomalar majmuyidan iborat "Miqyosi jadid" qo'llanmasini yaratgan. Matematika, geodeziya fanlari yutuqlarini gidrologiyaga tatbiq etgan (Hikmatov & Aytbayev, 2006, b. 40).

X asrga oid qo'lyozmalar orasida muallifi noma'lum bo'lgan "Kitobi hudud al-olam minal mashriq ilal mag'rib" (Sharqdan g'arbgacha olam chegaralari kitobi) asari gidrologiya va gidrografiya tegishli ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Asarda jahondagi yirik daryolar, ularning qayerdan boshlanib, qayerga quyilishi, suvning yerlarni sug'orishga sarflanishi, kemachilikka mos daryolar tavsiflangan. Suvliklarning tarixiy nomlari keltirilgan: "Sharqiy viloyatlarning eng chekkasida daryoyi Sabz (Yashil dengiz) bor. Bu dengizni rumiyaliklar (greklar) O'qiyonusi Mashriqiy (Sharqiy okean) derlar, arablar Bahr al-Azhar derlar». Bu yerda gap Tinch okean ustida bormoqda. Shu kabi Atlantika okeani, uning o'rni, suvining rangi, ta'mi, hidi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Hind okeani, O'rta dengiz, Kaspiy dengizi, Qora dengiz haqida o'z davriga nisbatan muhim gidrologik ma'lumotlar keltirilgan (Hikmatov & Aytbayev, 2006, b. 41). X asrda yashagan tarixchi olim Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari ham suv ilmi nuqtayi nazaridan diqqatga sazovordir.

O'rta Osiyo xalqlari turmushida suv alohida qiymatga ega ekanligini X asrga oid "Kitobi hudud al-olam minal mashriq ilal mag'rib" (Sharqdan g'arbgacha olam chegaralari kitobi) asarida keltirilgan quyidagi fikrlar orqali ham bilishimiz mumkin. "Daryo ikki xil bo'ladi, biri –tabiiy daryo, ikkinchisi–sun'iy. Tabiiy daryolar suvi qorliklarning erishidan (hosil) bo'ladi va tog'lardagi chashmalardan chiqib, yer betidan oqadigan suvlardan (hosil) bo'ladi, ular o'ziga yo'l yasab, oqar joyi goh kengayib, goh torayib (tang), dengizga yoki botqoqlikka yetguncha oqadi. Sun'iy daryolar o'zanlari qazilgan va suvi shaharlarni obod qilish uchun yoki viloyatning ekinlarini sug'orish uchun mo'ljallangan daryolardir". "Hudud al-alam" da okeanlar, dengizlar, ko'llar haqida ko'plab gidrologik ma'lumotlar keltirilgan. (Hikmatov & Aytbayev, 2006, b.41)

Abu Rayhon Beruniyning "O'tgan avlodlar yodgorligi", "Hindiston", "At-Tafqim", "Qonuni Mas'udiy", "Geodeziya", "Minerologiya" kabi asarlarida okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar, buloqlar haqida gidrologiya fani uchun qimmatli fikrlar bayon qilingan. Okeanlar, dengizlar, ko'rfazlar, quruqlik suvlari, daryolar, soylar, buloqlar, ko'llar, qorliklar, muzliklar, botqoqliklar va hatto yer osti suvlari haqidagi ilmiy qarashlar yoritilgan. "Hindiston" asarida "Okeanologiya"ga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Tinch (Sharqiy dengiz yoki Sharqiy

muhit) va Hind (Ulug' dengiz) okeanlari, Bo'ntus (Qora dengiz), Shom (O'rta dengiz), Xazar (Kaspiy) dengizi, Xorazm (Orol) dengizi, Issiqko'l, Etil (Volga), Nil, Jayxun, Oksart daryolarining tavsifi berilgan. Beruniyning okeanlar, dengizlar ilmiga qo'shgan hissasi yevropalik olimlar ta'biri bilan "Beruniyning dengizlar nazariyasi" nomini olgan (Hikmatov & Aytbayev, 2006, b. 46).

Oqova Suv Terminlari Tadqiqi

Yozma manbalarda suv leksemasi, shuningdek, leksema ishtirokida qanday so'z va birikmalar yasalganligi hamda uning struktur tuzilishida yuz bergan o'zgarishlar misollar asosida tahlil qilib berilgan.

"Qadimgi turkiy lug'atda" suv [*sub≈sug≈cuw≈*] so'zining "suv", «namlik», «suyuqlik»; *suva* so'zining «sug'ormoq», «namlamoq» (*quruq jerig suvaju* – quruq yerni sug'orib), *suval* so'zining «sug'orilgan» (*tariγ suvaldi* – tariq sug'orildi), *suvγar* so'zining «suv ichirish», «suv berish»; *suvsa* so'zining «tashna bo'lmoq», «tashnalik»; *suvsalıq* so'zining «tashna»; *suvsat* so'zining «tashna qilmoq» (*ol ani suvsatti* – u uni suvga tashna qildi) (Nadelyaev va b., 1969, b. 14, 512, 515, 516) ma'nolarini ifodalashi qayd etilgan.

"Devonu lug'otit-turk" dagi so'zlarni o'rganib chiqish, unda 1200 dan ortiq gidrologiya atamaları mavjudligini aniqlashga imkon beradi. 1-jildda 218 ta, 2-jildda 447 ta va 3-jildda 562 ta gidrologik hodisalar va jarayonlarni ifodalaydigan so'zlar mavjud. Masalan: ališ – suvning hovuzga quyiladigan 29 o'rni (joyi); aqın – sel; "batrush suv" – loyqa suv; munduz aqın– to'satdan kelgan sel; üzük – yerdan sirqib chiqib, hovuzga aylangan suv, sizot suv; eyrım – suv to'plangan joy; qızığ– dengiz, ariq, vodiy qirg'og'i, qum – suv to'lqini, aqindi syw –oqar suv (I,158), batruš syw –loyqa suv (I,428), syw qaqlandi –suv yig'ildi (II, 299), syw qoğuşlandi–suv shovulladi (Koshg'ariy Mahmud, 1960-1963)

Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asarida su(v) – سو suv (хилимлык су(в)ын сач ол отны өчүр – muloyimlik bilan suvni sochib, u o't (olov) ni o'chir) ma'nosida aks etgan (1972, b. 299).

V.Radlovning lug'atida cy, cy ≈ cyy, cyr cyn≈cyb≈cyw so'zi "suv", "daryo", "namlik", "suyuqlik", "sharbat" ma'nolarini bildirgani (Radlov, 1899, b. 743, 746) aytiladi.

Alisher Navoiy asarlarida suv, suv yil, Xizr suyi, suvor, suvsiz, suva, suy, suvol, suvar, sug'ormoq, suvor, suchi so'zlaridan mahorat bilan foydalangan. X. Jabborov Alisher Navoiy ijodida suv so'zining qo'llanishiga doir tahlillarni amalga oshirgan (Jabborov, 2005, b. 28).

"Boburnoma" asarida ham yurtimiz gidrografiyasi-daryo va soylari, buloqlari, ko'llari ta'rif-tavsifiga tegishli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Unda suv manbalari, daryolarning chuqurligi, muzlashi, oqim rejimi, oqim miqdori (necha tegirmon suv oqishi) batafsil ta'riflangan (Hikmatov & Aytbayev, 2006, b. 57)

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimgi davrlardanoq suvdan oqilona foydalanish, uni toza saqlash, isrof qilmaslik, shuningdek, ishlatilgan suvni tozalash tizimi ham yo'lga qo'yilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bundan qariyb 2200 yil ilgari 350 gektarlik Eski Termiz shahri xarobalaridan eski sopoldan yasalgan quvurlar topilgan. Ma'lumotlarga ko'ra topilgan bu quvurlar kanalizatsiya quvurlarining qoldig'i hisoblanib, quvurlarni bir-biriga ulash maqsadida ularning bir tomoni keng, bir tomoni qisqa bo'lgan. Buddaviylik inshooti Fayoztepaning qazish ishlarida toza suvni saqlash maqsadida toshdan yasalgan qurilma topilgan. O'sha vaqtdayoq aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, shuningdek, kommunal xizmat ko'rsatish ishlari yo'lga qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorazmning Amudaryoning qirg'og'ida uncha katta bo'lmagan toshdan qurilgan XI-XII asrlarga oid qadimgi Yigitqal'aning xarobalari joylashgan bo'lib, qal'ada 300-350 m masofaga cho'zilgan uncha katta bo'lmagan do'nglar topilgan. Ushbu xarobalarda yer osti suv yo'llariga mansub bo'lgan qandaydir inshootlarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Xuddi shu yerning o'zida diametri 50-60 sm bo'lgan sopol suv quvurlarining bo'laklari topilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bu do'nglar suv quvurlarini tozalaydigan joy bo'lganligi aytiladi. Yigitqal'aning ichida yer osti suv yo'llari bo'lib, yer usti kanallardagi singari suv o'z tabiiy kuchi bilan sopol quvurlar orqali quduqlarga kelib tushgan, bu quduqlardan aholi chelaklarda yuqoriga suv tortib olgan va hovuzlarda saqlagan.

Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanidagi Xo'ja Ravshan obidasi hududida XIII-XIV asrlarga oid qishloq xarobalari topilgan. Bu hudud Muborak gazni qayta ishlash zavodi ro'parasida, qum barxanlari bilan o'ralgan biydek dalada joylashgan. Hududdagi qadimiy qabriston esa ko'pchilik manbalarda ta'kidlangan kabi Xo'ja Rushnoiy deb atalishi ma'lum bo'ldi. Rivoyatlarga ko'ra, Xo'ja Rushnoiy juvzokashlarning piri bo'lib, yog' ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Yorug'lik ro'shnolik, xayrli amallar timsoli sifatida qadimdan qadrlanib kelingan. Shundanmi, yurtimizda bu joy Xo'ja Rushnoiy nomi bilan atalishi ham bekorga emas. Mahalliy xalq orasida bu bilan bog'liq turli taxminlar, rivoyatlar ham ko'p ekan. Qadimiy qishloq xarobalari esa ana shu qabristonning orqa tomonidagi hududdan

topilgan. Qishloq xarobalari orasidan Amir Temur davriga mansub 4 ta xona kashf qilingan. Ushbu xonalarning biridan sopol quvur qoldiqlari ham topilgan.

Buxoro shahridan 30 km g'arbda joylashgan, XVI asrning 30-yillarida barpo etilgan, maydoni 0,5 gektar bo'lgan Qizbibi xonaqosida ham kanalizatsiya sifatida foydalanilgan toshnovning qoldiqlari topilgan.

XIV-XVI asrlarda xalqimiz ariq, kanal, daryolardagi suvdan foydalanishda, sug'orish tizimida *tikto'qurtqa* deb ataladigan qurilmadan foydalangan. Tikto'qurtqaning uzunligi 50-60 sm dan to 2 m gacha, diametri 5-10 sm dan 30 sm gacha bo'lib, yog'och, sopol dan qilingan ariq boshidagi teshikka tik o'rnatilgan qurilma bo'lgan. Bu qurilma yopda (kanal) larga o'rnatilgan. Yopda suv ko'payganda oqim ancha kuchaya boradi va og'ir zarrachalar harakat doirasi kengayadi. Natijada bu zarrachalar ariqqa ko'p o'tgan. Shu vaqtda tikto'qurtqaning pastki teshiklari yopilib, loyqa zarralar kamroq bo'lgan oqimning yuqori qismi oqishi uchun qurilmaning yuqoridagi teshiklari ochilgan. Natijada og'ir zarracha (qum, toshlar) pastga cho'kib suv ariqlarga tiniqib oqqan. Demak, suvni tozalashning tindirish usuli qadimdan oq xalqimiz hayotida muhim o'rin tutgan. Bu jarayon tikto'qurtqa qurilmasi orqali amalga oshirilgan.

Qarshi shahrida 1914-yilda bino qilingan Qilichboy madrasasining hovlisida ham tashnov-kanalizatsiya mavjudligi aniqlandi.

Tik to'qurtqa tuzilishiga ko'ra qo'shma so'z bo'lib, tik va to'qurtqa so'zlarining kompozitsiya usulida birikuvidan yasalgan. XV-XVI asrlarda Xorazm hududlarida faol qo'llanilgan, hozirgi kunda qo'llanilmaydigan, faqat tarixiy asarlarda uchraydigan nafaol tarixiy leksika hisoblanadi. **Tik to'qurtqa** deb atalishi qurilmaning shakli va foydalanilishiga ko'ra olingan. Hozirgi kunda bu so'z Xorazmning ayrim hududlarida qo'llaniladi. Ekin maydoniga kiradigan suv quvurining boshlanishiga nisbatan aytiladi (G'ulomov, 1969, b. 258).

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kanalizatsiya tizimi qadimgi davrlardan oq xalqimiz hayotida muhim o'rin tutganligini yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin. Xonadonlarimizda oqova suvni chiqarib tashlaydigan quvur yo'llari toshnov (dashnov)lar bo'lgan. Yer osti, yomg'ir va ifloslangan suvlarni bir joyga yig'ish hamda chiqarib tashlash uchun shaharlarda quriladigan qurilma yoki inshoot nomini anglatgan. O'TILning 2 hamda 5 jildida bu so'z kiritilmagan, 6 jildli lug'atda esa *tashnov* va *toshnov* shaklida berilgan. Unga quyidagicha izoh keltirilgan va gap shaklidagi illyustrativ misol dalillangan:

Toshnov [tosh+nov] Qadimda toshdan, hozir beton yoki boshqacha qorishmalardan tayyorlanib, uying burchagida o'rnatiladigan, tahorat hamda g'usl uchun foydalaniladigan to'rtburchak qurilma; obrez. *Birozdan keyin Qurbongul bir oftoba suv olib kelar, oftobani toshnov yonig'a qo'yib, o'zi sekingina qaytib, xonning yuziga qarar.* Fitrat, Abulfayzxon (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2022, b. 385).

Ikki so'zning tosh va nov birliklarining birikishidan hosil bo'lgan. [Asos ot] + [Asos ot] qolipidagi qo'shma so'z. Tosh ko'p ma'noli so'z bo'lib, lug'atda berilgan bosh ma'nosida "...yaxlit massa yoki bo'lak holida uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo'rt tog' jinslarining umumiy nomi" deb izohlangan.

Qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noni anglatgan bu ot ta:sh tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik a: unlisidagi cho'ziqlik belgisi yo'qolib a unlisiga almashgan: ta:sh-tash-tosh. Nov forscha so'z bo'lib, suv oqish uchun mo'ljallangan maxsus suv yo'lasi ma'nosini beradi. Ta:sh-nov-tash-nov-toshnov shaklida qo'llanilgan.

O'TILning har uchala jildiga kiritilgan dastsho'(y) so'ziga lug'atda quyidagicha izoh berilgan.

Dastsho'(y) [f.- qo'l yuvadigan idish] Qo'l-bet yuvganda, yuvindi suv oqib tushadigan metall idish. *U [kanizak] xiyol o'tmay, qo'lida dastsho' va qumg'on bilan kelib, o'tirganlar qo'lga suv quydi.* M.Osim, Karvon yo'llarida. *Bir qo'lida obdasta, bir qo'lida dastsho', so'rining chetida turib, qo'llariga suv quya boshladi.* P. Qodirov, Qadrim. (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006, b. 575)

Tojik tilida *qo'l* ma'nosini anglatadigan ko'p ma'noli *dast* otiga yuvish, yuvmoq ma'nosini beradigan *shustan* fe'lining *sho'* hozirgi zamondagi asosini qo'shish bilan hosil qilingan. Idish asosan metaldan yasalgan bo'lib, yuz-qo'l yuvilganda oqindi suv yig'iladigan idish ma'nosini bergan.

Hanik [a.-suv quyiluvchi, to'kiluvchi] daxlizda yoki uying poygagida yuvinish, yuz-qo'l yuvish uchun suvi chiqib ketadigan qilib ishlangan maxsus joy; obrez. *Dahlizdagi hanik chetida cho'nqayib o'tirib, Umid qaynoqqina suvda yuz-qo'lini yuvib, ichkariga kirdi.* Mirmuhsin, "Umid". *...uyga yechindi, hanikda bet-qo'lini yuvib, yuqoriga chiqib o'tirdi.* H. G'ulom, "Mash'al". (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2008, b. 504).

Bundan tashqari xalqimiz ijtimoiy hayotida keng qo'llanilgan oqova suv bilan bog'liq quyidagi so'zlar ham uchraydi. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zlarga quyidagicha izoh berilgan:

Obpartov [f. - suvni chiqarib yuborish; chiqarib yuborilgan suv] Suv havzalari va gidrotexnik inshootlardan partov suvni chiqarib yuborish uchun qurilgan maxsus inshoot; oqova. *Obpartov va pastdagi tashlama ariqda gurkirab qamish o'sgan, uning mayin ukpari shamolda ipakday tovlanib hilpirardi.* S. Nurov, Narvon (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2007, b. 75).

Tojik tilida suv ma'nosini bildiradigan *ob* otiga tashlamoq ma'nosini ifodalaydigan *partoftan* fe'lining *parto(v)* hozirgi zamon asos qismini qo'shish bilan hosil qilingan. Bu so'z ortiqcha chiqit suvni tashlab yuborish uchun qurilgan inshoot ma'nosini anglatadi. Kompozitsiya usulida hosil qilingan so'z bo'lib, ko'proq badiiy asarlarda uchraydi.

Obrez so'zi haqida izohli lug'atlarimizda shunday izoh beriladi.

Obrez [f.-suv+olov— quyiluvchi, to'kiluvchi: obtova, obdasta; hojatxona] Uyning poytagida yoki daxlizda yuvinish, yuz-qo'l yuvish uchun maxsus yasalgan, usti berk o'ra; hanik. *Uzun, paxtali kamzul kiygan yalang oyoq ayol ro'moli bilan yuz-ko'zini berkitib, obrez yonida dildirab turardi.* N. Safarov, Olovli izlar. *Bu hujrada obrez — suv to'kadigan joy bo'lmaganidan, qo'l-yuzimizni ham ko'chaga chiqib yuvardik.* S. Ayniy, Esdaliklar (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2007, b. 75).

Ikki so'zning qo'shilishidan yasalgan bu qo'shma so'z tarkibi tojik tilidagi suv ma'nosini anglatadigan *ob* otiga *quy-*, *to'k-* ma'nosini anglatadigan *rextan* fe'lining hozirgi zamondagi *rez* asosini qo'shish bilan hosil qilingan.

Obxona [f. - suvli, nam joy, xona] 1 Masjid, madrasa hovlisida tahorat qilish uchun ajratilgan alohida xona. 2 map. Buxoro xonligi davrida: alohida zax va qorong'i qamoqxona, zindon. *Axir, Qurbon olti oy amir obxonasida yotib chiqqan odam. Gazetadan. Amirning dori bor, minori bor, nog'oraxonasi bor, bu zindondan boshqa yana «obxona», «kanaxona» nomli do'zaxlari bor.* S. Ayniy, Doxunda. (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2007, b. 76).

Ushbu so'z ham tojik tilida suv ma'nosini bildiradigan *ob* otiga *xona* otini qo'shish bilan yasalgan. Tuzilishiga ko'ra qo'shma ot sanalib, qadimdan oq xalqimiz hayotida keng qo'llanilgan.

Obdov s.t. Tomdan yog'in suvi tez oqib tushib ketishi uchun tom sathida qilinadigan qiyalik; nishab (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2007, b. 71). Og'zaki nutqda keng qo'llanilgan ushbu so'z tojik tilida suv ma'nosini beruvchi *ob* so'ziga *dov* so'zini qo'shish bilan hosil qilingan.

Oqindi so'zi qadimgi turkiy tildagi *aq-* fe'liga *-yindi* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. "Nishab tomonga surunkasiga harakatlan" ma'nosini anglatib, o'zbek tilida qattiq aytilgan a unlisi va ы unllarining qattqlik belgisi yo'qolgan: *aq+ыindi=aqынды-oqindi* tarzida talaffuz qilingan (Rahmatullayev, 2000, b. 35). O'zbek tilining izohli lug'atida korxon va xonadonlar hovlisidan oqib chiqadigan chiqindi suvlar yoki yog'in suvlar deya izoh berilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida "aqindi suv" birikmasi qo'llanilgan bo'lib, oqar suv, oqindi ma'nolarida qo'llanilgan.

Tazar O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'z kiritilmagan. Biroq xalqimiz turmush tarzida keng qo'llanilgan oqova suv bilan bog'liq terminlardan biri hisoblanadi. Yer ostidagi suv, yomg'ir, kor suvlari hamda oqindilarni yig'ib shahar tashqarisiga chiqarish uchun loydan yasalgan katta, yo'g'on sopol quvurdan tayyorlangan maxsus qurilma nomini ifodalaydi. Qadimdan zahob yerlarning suvini qochiradigan zovur uslubidagi quvurlar bo'lgan. Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va Hindistonda ham tazar qurilmasi qo'llanilgan. Dalvarzintepadan milodiy 2—3-asrlarga oid boy zodagon uyining poli ostidan uzunligi 93—98 sm, diametri 42—46 sm bo'lgan 3,5 m chuqurlikdan qazib olingan 20 ta tazarning qoldig'i topilgan. Afrosiyobdan, II-III asrlarga oid Tojikistonning Qo'rg'ontepa budda ibodatxonasi, Termizdagi Qoratepa budda ibodatxonasidan, miloddan avvalgi IV asrga tegishli Afg'onistonning Oyxonim shahar xarobasidan, Abdullaxon shaharqal'a xarobasidan o'ziga xos tazarlar topilgan. O'rta Osiyoda XI-XVI asrlarga taalluqli ark, o'rda, qal'a, turar joy me'morligi, madrasa va hammomlar qurilishida tazardan foydalanilgani haqida yozma ma'lumotlar saqlangan. Hozirgi kunda ko'p qavatli uylar, jamoat binolari va boshqa qurilishlarda kanalizatsiya tizimidan foydalanilmoqda.

Xalqob [f.- halqa-halqa bo'lib to'planib qolgan suv] Chuqur joylarda turib, yig'ilib qolgan suv. *Xalqob suv. Havo sarxush. Xalqoblar ko'kimtir ko'rinar, birinchi sovuqdan oyoq ostida yupqa muz qirsillar edi.* A. Muxtor, Bo'ronlarda bordek halovat (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2008, b. 381).

Halqob bu ot aslida doira shaklli narsa ma'nosini anglatadigan arabcha halq oti bilan suv ma'nosini anglatadigan tojik tilidagi ob otini qo'shilishidan hosil bo'lgan. "Chuqur joyda saqlanib qolgan, turib qolgan suv" ma'nosida qo'llanib kelinadi. Bu ot O'zbek tilining izohli lug'atida xalqob shaklida x harfi bilan xato berilgan.

Xulosa

Xullas, yuqorida sanab o'tilgan bu so'zlar xalqimiz kundalik turmush tarzida keng ishlatilib kelingan bo'lib, hozirgi kunda ham ularning ba'zilari tarixiy, badiiy asarlarda uchraydi. Bundan tashqari xalqimiz ijtimoiy hayotida keng qo'llanilgan oqova suv va uni tozalash bilan bog'liq so'zlarni to'plash, etimologik, morfologik jihatdan to'g'ri tasniflash muhim ahamiyatga ega. Tadqiq davomida shu narsa ayon bo'ldiki, oqova suv, u bilan bog'liq terminlar maxsus o'rganilish tarixiga ega emas. Sohaning terminologik tizimi tartibga solinmagan va leksikografik talqini ishlab chiqilmagan. Soha terminlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qancha manbalar: darslik, o'quv qo'llanmalarda oqova suv va uni tozalash jarayonida qo'llaniladigan terminlar turli manbalarda turlicha ko'rinish va mazmunda namoyon bo'lgan. Oqova suv va uni tozalash tizimiga tegishli terminlar aks etgan ayrim ensiklopedik hamda sohaviy lug'atlarda ham ba'zi bir kamchilik va nuqsonlar uchraydi. Sohaga tegishli bo'lgan terminlar izohini o'rganishga bag'ishlangan lug'atlar esa o'zbek lug'atchiligida hozirgacha yaratilmagan. *Tazar* so'zi izohli lug'atga kiritilmagan, *xalqob* so'zi esa izohli lug'atlarda xalqob shaklida x harfi bilan xato berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atlarida oqova suv va uni tozalash tizimiga oid terminlarning berilishida har xillik mavjud bo'lib, bugungi kun lug'atchiligi jiddiy tadqiqotlar olib borishni va zamon talablariga moslashishni vazifa qilib qo'yadi. Oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog'liq ushbu terminologik birliklarni o'rganish, to'g'ri izohlab tahlil qilish, yaratilgan va yaratiladigan lug'atlar uchun bir manba bo'lib xizmat qiladi.

Hakem Değerlendirmesi: Dış bağımsız.

Çıkar Çatışması: Yazar, çıkar çatışması olmadığını beyan etmiştir.

Finansal Destek: Yazar, bu çalışma için finansal destek almadığını beyan etmiştir.

Peer-review: Externally peer-reviewed.

Conflict of Interest: The author have no conflicts of interest to declare.

Financial Disclosure: The author declared that this study has received no financial support.

Adabiyotlar/Kaynaklar/ References

- G'ulomov, Y. (1969). *Xorazmning sug'orilish tarixi*. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi. (In Uzbek)
- Hasanov A., & Rashidov F. (1987). Yer osti suvlari haqidagi fan. Fan. (In Uzbek)
- Hikmatov F.H., & Aytbayev D.P. (2006). *O'rta Osiyo suv ilmi tarixiga oid ma'lumotlar*. Universitet. (In Uzbek)
- Jabborov, X. (2005). *O'zbek tilida suv leksemasining lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari*. Nasaf. (In Uzbek)
- Koshg'ariy Mahmud (1960-1963). *Devonu Lug'otit –Turk*. (S. M. Mutallibov, Ed.), O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi. (In Uzbek)
- Mahmudov, Q. (1972). *Hibat ul-haqoyiq*. Fan. (In Uzbek)
- Nadelyaev, V. M., Nasilov, D. M., Tenişev, R. R., & Şçerbak, A. M. (Eds.). (1969). *Drevnetyurkskiy slovar*. [Ancient Turkic dictionary] Akademija Nauk SSSR.
- O'zbek tilining izohli lug'ati I* (2006). Davlat İlmıy Nashriyoti. (In Uzbek)
- O'zbek tilining izohli lug'ati IV* (2008). Davlat İlmıy Nashriyoti. (In Uzbek)
- Radlov, V. V. (1899). *Opıt slovarya tyurkskih nareçiy* [Opıt dictionary of Turkic nareçiy]. Tip. Ross. İmper. Akad.Nauk.
- Rahmatullayev, Sh. (2003). *O'zbek tilining etimologik lug'ati*. Universitet. (In Uzbek)
- Rasulov, A., Hikmatov, F., & Aytboyev, D. (2003). *Gidrologiya asoslari*. Universitet. (In Uzbek)

Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların Yeme İçme Kültürü Hakkında

About the Food and Drink Culture of the Uyghurs in the Karakhanid Period

Esra EMET 

Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi,
Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, Ankara, Türkiye

Ankara Yıldırım Beyazıt University,
Department of Turkish Language and Literature
Ankara, Türkiye

Açıklama: Bu çalışma, Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsünde hazırlanan *Uygur Türklerinde Kadın Konulu Atasözleri* isimli yüksek lisans tezi kapsamında hazırlanmıştır. Bu makalenin orijinali Uygurca olarak Ehmed Sulayman QUTLUQ tarafından yazılmış ve 2008 yılında Xing-Jiang İjtima'iy Penleri (Xing-Jiang Sosyal Bilimleri Dergisi) dergisinin ikinci sayısında yayımlanmıştır

Explanation: This study was prepared within the scope of the master's thesis titled *Proverbs on Women in Uyghur Turks* prepared at Ankara Yıldırım Beyazıt University, Institute of Social Sciences. This article was originally written in Uyghur by Ehmed Sulayman QUTLUQ and published in the second issue of Xing-Jiang İjtima'iy Penleri (Xing-Jiang Journal of Social Sciences) in 2008.

Geliş Tarihi/Received 07.04.2024
Kabul Tarihi/Accepted 27.05.2024
Yayın Tarihi/Publication Date 30.05.2024

Sorumlu Çevirmen/Corresponding translator: Esra Emet
E-mail: emetesraa@gmail.com

Atıf: Qutluq, E. S. (2024). Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların yeme içme kültürü hakkında (E. Emet, Çev.). *Comparative Turkish Dialects and Literatures*, (5), 41-44.

Cite this article: Qutluq, E. S. (2024). About the food and drink culture of the Uyghurs in the Karakhanid Period (E. Emet, Trans.). *Comparative Turkish Dialects and Literatures*, (5), 41-44.



Content of this journal is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0

Öz

Karahanlılar Devri'nde Uygurlar, daha önce dağınık kabile hayatından yerleşik hayata geçerek çiftçilik yapmış, medeniyet yönünden oldukça önemli ilerlemeler katetmiştir. Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların yeme içme kültürü, bu devirdeki Uygurlar tarafından yaratılan kültür içinde en renkli ve en çekici kültür olarak kabul edilir. Makalede yazar, Divanü Lügat'it-Türk'te yer alan yeme içmeye ait bilgilerden faydalanarak o devirdeki Uygurların yeme içme kültürlerinden kısaca bahseder.

Anahtar Kelimeler: Karahanlılar, Uygurlar, Karahanlılar Devri, Dîvânu Lugâti't- Türk, yeme içme

ABSTRACT

During the Karakhanid Period, Uyghurs switched from a scattered tribal life to a settled life, engaged in farming, and made significant progress in terms of civilization. The eating and drinking culture of the Uyghurs in the Karakhanid Period is considered the most colorful and attractive culture among the cultures created by the Uyghurs of this period. In the article, the author briefly talks about the food and drink culture of the Uyghurs of that period, using the information about food and drink in Divanü Lügat'it-Türk.

Keywords: Karakhanids, Uighurs, Karakhanids Period, Dîvânu Lugâti't- Türk, food and drink

Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların Yeme İçme Kültürü Hakkında

Karahanlı Devleti MS IX. asrın ikinci yarısında Tarım Vadisi'ndeki kadim medeniyet ocaklarından biri olan Kaşgar ile Orta Asya'daki Balasagun'u merkez almış bir halde ve Uygurlar temelinde kurulmuş, Cunggo tarihinde ilk defa İslam inancını kabul etmiş feodal bir devlettir. Karahanlı Devleti döneminde Orta Asya'daki Türk dilli halklar, özellikle Uygurların tarihinde önemli değişiklikler ortaya çıkmış olup bu dönemde Orta Asya'nın yayla bölgelerinde göçebe hayvancılık yapan Türk dilli boyların büyük bir bölümü aşama aşama şehirlere ve tarım arazilerine yerleşmeye başlamıştır. Sonuç olarak bir araya gelme ve yerleşik hayata geçme sürecinde eskiden beri var olagelen boylar arası farklar zayıflamış, değişik Uygur boylarının gerçek medeniyetinin özünde, İslam medeniyeti ve Orta Asya'nın geleneksel medeniyeti ile yoğrulmuş bir medeniyet sistemi, yani Karahanlılar Devri Uygur İslam medeniyet sistemi şekillendirmiştir. Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların yeme içme kültürü işte bu kültür sistemi içindeki en renkli ve en çekici özelliğe sahip kültürlerden biridir. Karahanlılar Devrine kadar uzanan tarihi belgeler çok fazla olmasa da Karahanlı Devri'nde yaşayan meşhur dilci Kaşgarlı Mahmut tarafından MS 1077 yılında tamamlanan Dîvânu Lugâti't- Türk'te (aşağıda kısaltılarak "Divan" şeklinde ifade edildi.)

Tahıldan Yapılan Yiyecekler

Arkeolojik kazılardan anlaşıldığı üzere Xing-Jiang (Doğu Türkistan)'da 4000-10000 yıl önce, Yeni Taş Devri'nde çiftçilik yapılmaya başlanmıştır. Yeni Taş Devri'nin sonu ya da Bronz Devri'nin (Bundan 3000-4000 yıl önce) başlarından itibaren buğday yetiştirilmeye başlanmış, bundan sonra aşamalı olarak mısır

özerk bölgedeki Uygurların yeme içme kültüründe tahıldan yapılan yiyecekler (yani undan yapılan yiyecekler) temelini oluşturur. Divan'daki bilgilere bakıldığında "Uygurların yeme içme kültürünün Karahanlılar Devri'nde de çoktan şekillenmiştir." demek mümkündür çünkü Divan'daki yeme içmeye dair bilgilerin önemli bir bölümünü tahıldan yapılan yiyecekler dâhildir.

Ekmek

Arkeolojik buluntulardan anlaşılıyor ki Xing-Jiang'da (Doğu Türkistan) yaşayan ecdadımız bundan 3-4 bin yıl önce mısır ve buğday unlarından mükemmel bir şekilde ekmek yapmıştır. Karahanlılar Devri'ne gelindiğinde ekmek, Uygurların yeme içme kültüründe önemli bir yere sahip olmuştur. Divan'da un ile yapılan (ya da hazırlanan) yiyecekler arasında en büyük yeri ekmekle ilgili bilgiler tutar. Bu bilgilere tahminen onlarca yerde karşılaşılır. Bu, Karahanlılar Devri'nde Uygurların kendine has, sağlam, milli özelliğe sahip ekmek kültürünü meydana getirdiğini gösterir.

Divan'da aşağıdaki gibi ekmek türleri bulunmaktadır:

- (1) Atmak: Yeni Uygurcada 'etmek, nan', ekmek anlamındadır (DLT, Cilt 3, s. 138).
 - (2) Toquç: Yeni Uygurcada 'Tokaç', 'çörek' anlamındadır (DLT, Cilt 1, s. 464).
 - (3) Sincü: Uygurların 'girde' dediği kalın tandır ile lavaş arasında bir çeşit ekmek (DLT, Cilt 1, s. 626).
 - (4) Kavşag: Yeni Uygurcada 'kövşeg' dediğimiz 'mayalanmış ekmek' (DLT, Cilt 1, s. 626).
 - (5) Qatma: Yeni Uygurcada "Katlama" dediğimiz yağda pişirilen nefis ekmek, Türkiye'deki gözlemeye benzer (DLT, Cilt 1, s. 546).
 - (6) Qaqrğan: Yeni Uygurcada 'Katlima' denilen ekmeğin hamurunu yağ ile yoğurup tandır ya da ocakta pişirilen nefis ekmek (DLT, Cilt 1, s. 672).
 - (7) Qalayığa: Yeni Uygurcada 'töhmetçi nan' derler. Bu ekmek o kadar ince ki, dokunur dokunulmaz parçalanır. Bu ad hamurun yoğrulma şekline göre verilmiştir (DLT, Cilt 3, s. 31).
 - (8) Yarma ya da Yarmuğa: bir çeşit katlama, gözleme ekmektir (DLT, Cilt 3, s. 44).
 - (9) Cuqmin, yeni Uygurcada "çukmin" denilen buharda pişirilen bir çeşit ekmek. Nefis ve hazmı kolaydır.
 - (10) Kömeç: yeni Uygur Türkçesinde de "kömeç" denilen küle gömülerek pişirilen bir çeşit ekmek (DLT, Cilt 1, s. 487).
 - (11) Poşkal: Yeni Uygurcada da "poşkal" denilen yağda pişirilen bir çeşit yufka ekmeği (DLT, Cilt 1, s. 628).
 - (12) Quyma: Yeni Uygurcada da 'kuymak' denir. Türkiye'deki pişiyeye benzer ve üstüne şeker dökülerek yenir (DLT, Cilt 3, s. 239).
- Yukarıda belirtilenlerden Karahanlılar Devri'nde ekmek türlerinin çokluğunu ve gündelik hayatta ekmeğin temel tüketim ürünlerinden birisi olduğu görülmektedir.

Yemek

- (1) Dîvânu Lugâti't-Türk'te un ile yapılan yiyeceklerden sonra ikinci sırada yer alan yemeklerdir. Türleri, kullanılan malzemenin farklılığına göre undan, mısırdan ya da kabuksuz darıdan yapılan yemekler ve kavrulmuş undan yapılan yemekler olarak gruplara ayrılır. Divan'da yemek türleri ile ilgili şunlar yazılır:
- (2) Çöp: Yeni Uygurcada da 'çöp' denilir, geniş kesilmiş eriştendir (DLT, Cilt 1, s. 418).
- (3) Tutmaq: Yeni Uygurcada 'çöp': Türklerin ünlü yiyeceklerinden biridir (DLT, Cilt 1, s. 590).
- (4) Ügra: Yeni Uygurcada 'ügre' denilir. İnce kesilmiş erişteden yapılmış, sulu yemektir. 'bir çeşit çorba, o çöp yeni erişte yemeğinden daha sulu ve lezzetli olur (DLT, Cilt 1, s. 171).
- (5) Türmak: Yeni Uygurcada 'türmel' denilir. Türkiye Türkçesindeki 'et dürüm' (DTL, Cilt 1, s. 622).
- (6) Qiyma: Kıymalı erişte çorbasıdır. Bunun hamuru serçe dili gibi kesilir (DLT, Cilt 1, s. 683).
- (7) Sarmacuç: Yeni Uygurcada 'kuşkaç tili aş' (serçe dili aş) denilir. Çorbanın bir türü (DLT, Cilt 1, s. 683).
- (8) Tutğuç: Ana yemek servisi yapılmadan önce verilen iştah açan yiyecek (DLT, Cilt 1, s. 591).
- (9) Kürşak: Yeni Uygurca 'kürşek', darıyı suda kaynatıp üstüne, üzerine su konularak yenen kabuksuz darı yemeği (DLT, Cilt 1, s. 625).
- (10) To: Helvaya benzeyen, pişirilen bir tür unlu yemek, o bir kaba konulup mayalandıktan sonra içilir (DLT, Cilt 3, s. 287).
- (11) Qağut, (qağut): Darıdan yapılan bir tür yemek (DLT, Cilt 1, s. 528).
- (12) Soğut (soğut): Koyun bağırsağının içine pirinç, et ve baharat konularak hazırlanan yemek (DLT, Cilt 1, s. 462).
- (13) Latu (letü): Bir çeşit sulu yemek. Bu yemek su, kar, buza benzer şeylerle soğutulur. İçine baharat konularak serinlemek için içilir (DLT, Cilt 3, s. 326).

Kaşgarlı Mahmut Divan'da bazı yemek türlerinin ortaya çıkışlarını da anlatır. Mesela erişteden bahsederken, "O, Türklerin ünlü yemeklerinden biri, bu yemek Zülkarneyn zamanında meydana gelmiş, onun meydana gelişi şöyledir: Zülkarneyn'in karanlıktan çıktığında askerlerin yiyeceği bitmek üzeredir. Onlar açlıktan Zülkarneyn'e sızlanarak 'Bizi aç bırakma!' anlamında 'Bizni tutmak' diye hitap ederler

daha sonra Zülkarneyn bu yemeği bulur.” diye yazılmış. Kaşgarlı Mahmut yine bir kısım yiyecek türlerinin hazırlanış, adlandırılış usulünü hangi yemeğin hangi tür insanlara iyi geldiğini ve bir kısım yemeklerin şifalı rolünü göstermiş. Mesela, Divan’da; ‘kağut’, mısırdan yapılan bir çeşit yemek, onun pişirilme şekli şöyle: Mısır önce kaynatılıp sonra kurutulur, sonra değirmende çekilip un yapılır. Ondan sonra yağ ve şekerle karıştırılıp doğum yapan kadınlara verilir.

Sarmacuk: Serçe dili aşısı, çorbanın bir türü. Bunun hamuru nohut büyüklüğünde kesilir, hastalara verilir.

Tutmak: Türklerin en eski yemeklerinden biridir. Bu yemek bedene güç verir ve yüze renk katar, midede uzun süre durur onun tanesi yenilir çorbası içilir, diye yazılır. Yukarıdakiler sadece Divan’da söylenenleri izah etmek amacıyla yazılan bir kısım yemek türleridir. Biz bundan Karahanlılar Devri’ndeki Uygurların bir kısım yemek türlerinden yüzeysel olsa da bilgiye erişiyoruz.

Et Yemekleri

Uygurların yoğun olarak yaşadığı Doğu Türkistan, önemli hayvancılık merkezidir. Yazılanlardan ve arkeolojik kazılardan anlaşıldığı kadarıyla çok eski zamanlardan beri Doğu Türkistan’da çiftçilik ile hayvancılık aynı oranda gelişmiş. Karahanlılar zamanında hayvancılık temelde at, inek, koyun, keçi, deve ve eşek gibi hayvanlarla yapılırdı. Onların arasındaki bir kısım hayvan ulaşım amacıyla, başka bir kısım harp işlerinde, bir kısım hayvan ise yemek sektöründe kullanıldı. Hayvan ürünlerinden giyim kuşam yapılırdı. Divan’da etten yapılan yemekler hakkında oldukça fazla bilgi verilmiş olup onlardan önemlileri aşağıdaki şekildedir:

(1) Soqtu: Mumbarın bir türü. Ciğer ile et karıştırılarak bağırsağa basılır. Daha sonra pişirilip yenir (DLT, Cilt 1, s. 543).

(2) Mün: Bir çeşit çorba (DLT, Cilt 1, s. 143).

(3) Toğril: Yeni Uygurcada ‘qéza’, İçine baharat ve et basılan bağırsak (DLT, Cilt 1, s. 629).

(4) Topiq: Yeni Uygurcada ‘Topuq’, koyunun incik kemiğinden yapılan yiyecek. (DLT, Cilt 1, s. 492).

(5) Yorgamac: Yeni Uygurcada ‘yörgemeç’ denilen, işkembe ve bağırsağı ince bağırsağı basıp kebab yapılarak ya da pişirilerek yenilen yemek, Mumbar (DLT, Cilt 3, s. 74-75).

(6) Yazuq (yazduq) ya da yazuq at: Güzün her çeşit baharatla kurutulup ilkbaharda yenilen kuru et (DLT, Cilt 3, s. 19).

(7) Kazi: Yeni Uygurcada qéza, pastırmaya benzeyen yiyecek (DLT, Cilt 3, s. 309).

(8) Soglüncü, Söglüncü: Kebap (DLT, Cilt 3, s. 333).

Divan’da kaydedilen, etten yapılmış yemekler içinde insanların en çok dikkatini çeken yemek at etinden yapılan yemeklerdir. Mesela Divan’da, “Yund” kelimesi at ve “yılkı” anlamındadır. “<yund ati yipar”, at eti misk gibi güzel kokuludur, pişirilip soğutulduğunda ondan misk gibi güzel bir koku yayılır.

Kazi, yund kazisi: Yılkının pastırması yağlıdır. “Türklerin en sevdiği yağ budur.” denir. Bundan başka Karahanlılar devrinde Uygurların at etini Uygurlar sadece pişirmekle kalmadığını, aynı zamanda onun pastırmasını da yaptıkları ayrıca yağını da değerlendirdiklerini görmek mümkündür.

İçecekler

Hepimiz biliriz ki içecekler, yeme içme içinde temeldir ve hayatımızda olmazsa olmazdır. Divan’da Karahanlılar Devri’ndeki Uygurların içeceklerine dair bilgiler onlarca yerde yazılmıştır. Biz bu içecekleri onların malzemelerine dayanarak meyveden yapılan içecekler, süt ürünlerinden yapılan içecekler ve tahıldan (ya da yiyecekten) yapılan içecekler olarak üçe ayıracağız.

Meyveden Yapılan İçecekler

Divan’da meyveden yapılan içeceklerden temel olarak aşağıdakiler bahsedilmiştir:

(1) Uhaq, Ohak: Hoşaf (DLT, Cilt 1, s. 165).

(2) Bor: Şarap. Atasözünde şöyle yazılmıştır; şarap olmadan, sirke olma (DLT, Cilt 3, s. 167).

Hepimiz biliriz ki Doğu Türkistan ezelden beri meyve sebze mekânıdır. Karahanlılar Devri’nde de Tarım Vadisi’nin bağ işleri oldukça ilerleme göstermiş ve buralarda erik, şeftali, armut, ayva, üzüm, kavun, elma, ceviz, nar, dut, hünnap ve iğde gibi meyve sebzeler yetiştirilmiş ve onlardan her çeşit içecek üretilmiştir.

Sütten Yapılan İçecekler

Süt ürünleri kullanılarak yapılan içecekler, gerek hayvancılık bölgesindeki gerekse çiftçilik bölgesindeki Uygurların yeme içme hayatında oldukça önemli bir parçadır. Üretimin önemli bir parçası kabul edilir. Divan’da Uygurların süt ürünleriyle hazırladığı içeceklerden aşağıdaki şekilde bahsedilmiştir:

(1) Ayran: Divan’da yoğurt olarak belirtilmiştir (DLT, Cilt 1, s. 163).

(2) Uzıtma (Uyutma): Yoğurt (DLT, Cilt 1, s. 195).

(3) Qimiz: Tulumda mayalanıp içilen yulku sütü (DLT, Cilt 1, s. 474).

(4) Qayak: Kaymak (DLT, Cilt 3, s.228).

Hububatlardan Yapılan İçecekler

Divan'da hububattan yapılan içeceklerden temel olarak aşağıdaki şekillerde bahsedilir:

(1) Çağır: Şarap, rakı (DLT, Cilt 1, s. 470).

(2) Süçik: İçki, İli Vadisi'nde yaşayan Yağma, Tohsi, Çigil kabileleri içkiye "qizil süçik" der (DLT, Cilt 1, s. 531).

(3) Bagni: Buğday, ısır ve arpaya benzeyen şeylerden hazırlanan içecek (DLT, Cilt 1, s. 565).

(4) Buhsum: Darıdan yapılan içecek (DLT, Cilt 1, s. 631).

(5) Ağartğu: Buğday yarmasından yapılan, bozaya benzeyen içecek (DLT, Cilt 3, s. 600).

Yukarıda gösterilen içecekler içinde yiyecekte yapılanlarla süttten yapılanlardan Divan'da birçok yerde bahsedilmiştir. Bu, Uygurların yaşadığı İli, Tarım Vadisi'nde çok eski zamanlardan beri çiftçiliğin oldukça fazla olduğunu, böylece Uygurların toplumsal hayatında hayvancılığın çiftçilikle benzer şekilde önemli yere sahip olduğunu gösterir.

Çeşitli Tat Vericiler (Baharatlar)

Divan'da o dönemdeki Uygurların yeme içmelerinin dışında yine her türlü baharatlar kullandığını anlayabiliriz.

(1) Mandu: Bir çeşit Türk sirkesinin adı. O şu şekilde hazırlanır, üzüm şirasını çokça mayalayıp üstüne içki koyup bir gece bekletilerek yapılır. Bu en iyi sirke olarak kabul edilir (DLT, Cilt 1, s. 548).

(2) Yamata: Pişi hamuruna benzeyen, sıvı olan bir çeşit hamur, yağlı tavuk ve koyun etini kavurduğunuzda ya da kebab yaptığınızda yağı akmasını diye ona bu hamur sürülür (DLT, Cilt 1, s. 580).

(3) Qor: Ekşimiş süt mayası. Bu kabın dibinde bırakılan az yoğurt ya da kırmızı mayası olup, bunun üstüne süt koyup bekletilerek yoğurt yapılır (DLT, Cilt 3, s. 168).

(4) Sirka: Üzüm sirkesi.

(5) Murç: Kırmızı ve karabiber (DLT, Cilt 1, s. 447).

Bu tat verici maddelere başta gösterilen yiyecek içeceklerin hazırlanma usulü ile birleştirerek bakacak olursak Karahanlılar Devri'nde yaşayan Uygurların yiyecek içecek hazırlama maharetinin ne kadar gelişmiş olduğunu, tat verici maddelerin yiyecek içecekleri hazırlamada oldukça gelenekselleştğini anlarız. Bu şekilde günümüz Uygurlarının bazı yiyecek içeceklerini hazırlama, pişirme tekniklerinin işte bu Karahanlılar Devri'nde çoktan meydana geldiğini anlıyoruz. Hepimiz biliriz ki yeme içme hayatımızda önemli yere sahiptir. Onun ortaya çıkışı ve yükselişi, doğal olarak, belli bir devirdeki ekonomik hayatın etkisinden ayrı düşünülemez. Karahanlılar Devri'ndeki Uygurların yeme içme kültürlerinin şekillenmesini ve yükselişini, o dönem Doğu dünyasında Karahanlılar Devri'nin gelişen ve yükselen ekonomik ve kültürel durumunu göz önüne alarak değerlendirmek gerekir. Şöyle söylemek mümkündür ki: Karahanlılar Devri'nde Uygurların Doğu ile Batıyı birleştiren büyük İpek Yolu vasıtasıyla Doğu ve Batı dünyası ile karşılaşp başka milletlerin üstün kültürünü kabul etmesi neticesinde yeme içme kültürü daha da yükselmiş ve günümüz Uygur yeme içme kültürünün şekillenmesinde temel olmuştur.

Açıklama: (1) (2) (3) (4) Kaşgarlı Mahmut, Dîvânu Lugâti't- Türk 1. Cilt Xing-Jiang Halk Neşriyatı 1981, s. 590, 591, 528, 683, 573, 574.

(5) Uygurların Kısaca Tarihi'ni Yazma Grubu'nun yazdığı Uygurların Kiskiçe Tarihi, 1989, s. 188-189 Şinjang Halk Neşriyatı, Ürümçi.

(6) (7) Kaşgarlı Mahmud 1984, Dîvânu Lugâti't- Türk, 3. Cilt, s. 7-309

Yazarın çalıştığı yer: Xing-Jiang Üni. Filoloji Enstitüsü Tarih Fakültesi

Editör: Muhemmedcan Mömin

Çıkar Çatışması: Yazar, çıkar çatışması olmadığını beyan etmiştir.

Finansal Destek: Yazar, bu çalışma için finansal destek almadığını beyan etmiştir.

Conflict of Interest: The author have no conflicts of interest to declare.

Financial Disclosure: The author declared that this study has received no financial support.